

SH.Z. UMAROVA,
Z.SH. XIDOYATOVA, M.T. AZIMOVA



FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH

2-QISM

O'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

SH.Z.UMAROVA, Z.SH.XIDOYATOVA, M.T.AZIMOVA

**FARMATSEVTIKA ISHINI
TASHKIL QILISH**

**O'QUV QO'LLANMA
II QISM**

*5510500-Farmatsiya (turlari bo'yicha)
5111000-Kasb ta'limi (farmatsevtika ishi)
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun*

SamDTU
axborot-resurs markazi
18974

**"IBN-SINO"
Toshkent 2023**

UO'K: 615.014(075.8)

KBK: 52.81ya73

U 47

SH.Z.Umarova, Z.SH.Xidoyatova, M.T.Azimova

Farmatsevtika ishini tashkil qilish/O'quv qo'llanma/II qism

T.: "IBN-SINO", 2023.-230 b.

Taqrizchilar:

X.S.Zaynutdinov

Farmatsevtlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti FITQ va FT kafedrası professori, f.f.d.

A.A.Ashurov

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi Toshkent vaksina va ardoqlar ilmiy tadqiqot instituti direktori, f.f.n.

Ushbu qo'llanmada farmatsevtika xizmatini nazorat-ruxsatnoma tizimi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi, agentlikning asosiy vazifalari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining vazifalari, dorixonada giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar, giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash, statsionar sharoitda davolanayotgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida, dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va talab istiqbolini aniqlash, dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va unga ta'sir etuvchi omillar, alohida farmakoterapevtik guruh dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash usullari, ehtiyoj istiqbolining asosiy negizlari va dori vositalariga bo'lgan talabni aniqlash, farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkillashtirish, farmatsevtik omborxonaning tuzilishi, dori vositalarining muomalasida logistik yondashuv, farmatsevtika bozorida axborot texnologiyalari va elektron tijorat, elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlari, elektron tijorat ishtirokchilarining huquqiy holati, elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risidagi axborot ma'lumotlari yoritib berilgan.

Farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

ISBN: 978-9943-9399-1-2

© «IBN-SINO» 2023.

© Toshkent farmatsevtika instituti

"Tahririy-nashriyot bo'limi" bosmaxonasida chop etildi., 2023.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	6
1 – 2 BOBLAR. FARMATSEVTIKA XIZMATINI NAZORAT- RUXSATNOMA TIZIMI.....	8
1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi.....	9
1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi to'g'risida.....	12
1.2.3. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitary korxonasining vazifalari.....	15
1.2.4. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining huquqlari va javobgarligi.....	25
1.2.5. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitary korxonasi faoliyatini tashkil etish.....	27
1.2.6. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish tartibi	29
1.2.7. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va namunalar.....	32
1.2.8. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish, guvohnoma berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish.....	34
1.2.9. Ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.....	47
1.2.10. Guvohnomani olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va namunalar	57
1.2.11. Dori vositalarini sifatini nazorat qilish laboratoriyasi ishini tashkil qilish.....	76
1.2.12. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	79
1.2.13. Mustaqi bajarish uchun vazifalar	80
1.2.14. Testlar.....	82
3 BOB. DORIXONADA GIYOHVAND DORI VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLAR MUOMALASI.....	85
3.1. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonun hujjatlari	86

3.2. Giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash.....	89
3.3. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish.....	91
3.4. Litsenziyaning amal qilishini tugatish va litsenziyani bekor qilish.....	92
3.5. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish shartlari.....	94
3.6. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni berish, realizatsiya qilish va taqsimlash.....	96
3.7. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash.....	100
3.8. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	112
3.9. Mustaqi bajarish uchun vazifalar.....	113
3.10. Testlar.....	115
4-BOB. STATSIONAR SHAROITDA DAVOLANAYOTGAN BEMORLARNI DORI VOSITALARI BILAN TA'MINLASH.....	118
4.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida.....	119
4.2. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	121
4.3. Mustaqi bajarish uchun vazifalar.....	122
4.4. Testlar.....	122
5-BOB. DORI VOSITALARIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA TALAB ISTIQBOLINI ANIQLASH.....	128
5.1. Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va unga ta'sir etuvchi omillar.....	129
5.2. Alohida farmakoterapevtik guruh dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash usullari.....	130
5.3. Ehtiyojni aniqlashning zamonaviy usullari.....	131
5.4. Ekstrapolyasiya usullari.....	132
5.5. Istiqbolni aniqlashda modellash usullarining qo'llanishi.....	133
5.6. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	135
5.7. Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	136
5.8. Testlar.....	138
6-7 BOBLAR. FARMATSEVTIKA BOZORIDA ULGURJI SAVDO FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. DORI VOSITALARINING MUOMALASIDA LOGISTIK YONDASHUV.....	141
6.7.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish tartibi to'g'risida Nizom.....	142
6.7.2. Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risida ma'lumotlar.....	155

6.7.3. Dorixona omborining vazifalari.....	165
6.7.4. Dorixona omborining xususiyatlari.....	172
6.7.5. Dori vositalarini saqlashning o'ziga xosligi.....	178
6.7.6. Farmatsevtika sohasida logistika.....	185
6.7.7. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	188
6.7.8. Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	189
6.7.9. Testlar.....	195
8-BOB. FARMATSEVTIKA BOZORIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI VA ELEKTRON TIJORAT.....	198
8.1. Axborot atamasi to'g'risida tushuncha.....	198
8.2. Axborot texnologiyasi to'g'risida tushuncha.....	200
8.3. Elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlari.....	201
8.4. Elektron tijorat ishtirokchilarining huquqiy holati.....	206
8.5. Elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risidagi axborot.....	207
8.6. Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari.....	208
8.7. Elektron tijoratning asosiy tamoyillari.....	211
8.8. Elektron tijorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.....	213
8.9. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	218
8.10. Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	219
8.11. Testlar.....	219
Qisqartmalar ro'yxati.....	223
Glossariylar.....	224
Foydalanilgan adabiyotlar.....	227

SO'Z BOSHI

Aholi va sog'liqni saqlash muassasalarini arzon dori vositalari, tibbiy buyumlar bilan ta'minlashni yaxshilashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi vaqtlarda aholini va sog'liqni saqlash muassasalarini arzon dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika bilan ta'minlashni yaxshilashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Farmatsevtika faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, aholi va sog'liqni saqlash muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasini yanada oshirish, ularning ishlab chiqarilishi, olib kirilishi va sotilishini muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari tasdiqlandi.

Mazkur o'quv qo'llanma farmatsevtika institutlarining farmatsiya fakultetlarida tahsil olayotgan talabalarining Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg'ulotlarini olib borish uchun yozilgan bo'lib, fan dasturiga to'liq javob beradi.

Unda farmatsevtika xizmatini nazorat-ruxsatnoma tizimi, dorixonada giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi, statsionar sharoitda davolanayotgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash,

dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va talab istiqbolini aniqlash, farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkil etish, dori vositalarining muomalasida logistik yondashuv, farmatsevtika bozorida axborot texnologiyalari va elektron tijorat bo'yicha ma'lumotlar va mavzularga tegishli mustaqil bajarish uchun vazifalar hamda nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun har bir mavzulari bo'yicha test savollari keltirilgan.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining farmatsevtika sohasidagi buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlar yuqorida keltirilgan mavzular bo'yicha keng va batafsil yoritib berilgan.

1 – 2 BOBLAR. FARMATSEVTIKA XIZMATINI NAZORAT- RUXSATNOMA TIZIMI

1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi

1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi to'g'risida

1.2.3. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining vazifalari

1.2.4. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining huquqlari va javobgarligi

1.2.5. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitary korxonasi faoliyatini tashkil etish

1.2.6. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatdan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibi

1.2.7. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va namunalar

1.2.8. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish, guvohnoma berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish

1.2.9. Ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

1.2.10. Guvohnomani olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va namunalar

1.2.11. Dori vositalarini sifatini nazorat qilish laboratoriyasi ishini tashkil qilish

1.2.12. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1.2.13. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1.2.14. Testlar

Mavzuning maqsadi: Talabalarga farmatsevtika xizmatini nazorat-ruxsatnoma tizimi, uning bosqichlari, «Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi» davlat unitar korxonasining tarkibiy qismlari, vazifalari, nazorat analitik laboratoriya ishlarini tashkil etish to'g'risida ma'lumotlar berish. Farmatsevtika xizmatini nazorat qilish tizimi bo'yicha talabalarning malakasini shakllantirish, nazorat-analitik laboratoriya ishini tashkil etish haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish
agentligi**

Farmatsevtika faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, aholi va sog'liqni saqlash

muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasini yanada oshirish, ularni ishlab chiqarilishi, olib kirilishi va sotilishini muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 noyabridagi "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5229-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi tashkil etildi.

Farmonga asosan, quyidagi davlat muassasalari Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi tarkibiga kiritildi:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi;

O'zbek kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti;

Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti;

"Sharq tabobati" ilmiy-tadqiqot instituti;

"Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri.

Agentlikning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

Farmatsevtika tarmog'ini, jumladan uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini

joriy etish yo'li bilan barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Farmatsevtika bozori kon'yunkturasini o'rganishni tashkillashtirish, aholi va sog'liqni saqlash muassasalarining farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlanganlik holatini tizimli tahlil qilish va uning asosida ichki bozorni yanada to'ldirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

Tarmoq korxonalariga yetakchi xorijiy farmatsevtika korxonalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda, farmatsevtika mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh, yuqori sifatli yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishda ko'maklashish;

Farmatsevtika tarmog'ini, shu jumladan farmatsevtika mahsulotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, shuningdek, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash (dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana sotish bundan mustasno) yo'li bilan davlat tomonidan boshqarish;

Farmatsevtika tarmog'iga ilg'or xorijiy amaliyot va xalqaro standartlarni tadbiq etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

Import qilinayotgan va respublika hududida ishlab chiqarilayotgan farmatsevtika mahsulotlari to'g'risida to'liq

axborot yig'ishni ta'minlovchi Farmatsevtika mahsulotlari harakatini nazorat qilish va hisobga olish axborot tizimini joriy qilishda ishtirok etish;

Innovatsion va yuqori sifatli dori vositalarini, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, aholining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, farmatsevtika sohasi mutaxassislarini xalqaro ta'lim standartlari asosida va talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashni, farmatsevtika ta'limining xalqaro ilmiy hamjamiyat tizimiga izchil integratsiyalashuvini ta'minlash va respublikada farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan "Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri Direksiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish.

**1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
huzuridagi Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy
texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi
davlat unitar korxonasi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi davlat boshqaruv organi hisoblanadi va respublikada dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi tuzilmasiga Farmakologiya qo'mitasi, Farmakopeya qo'mitasi, Narkotiklar nazorati qo'mitasi, Yangi tibbiy texnika qo'mitasi, Farminspeksiya, ro'yxatdan o'tkazish bo'limi, Metrologiya bo'limi, Farmatsevtika sohasiga xalqaro standartlarni joriy etishni muvofiqlashtirish bo'limi, Dori vositalari va tibbiy buyumlar siyosati bo'limi, kadrlar bo'limi, devonxona, yuridik xizmat, Axborot kommunikatsiyalar texnologiyalari bo'limi, shuningdek Dori vositalari ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat markazi (keyingi o'rinlarda DVESDM deb ataladi) kiradi.

DVESDM mustaqil yuridik shaxs bo'lib, o'z faoliyatini davlat unitar korxonasi tomonidan tasdiqlanib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladigan Ustaviga asosan amalga oshiradi.

Davlat unitar korxonasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Sog'liqni saqlash vazirligining buyruqlari va ko'rsatmalariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Davlat unitar korxonasining dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sifati masalalari yuzasidan o'z

vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar, barcha tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Davlat unitar korxonasining bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Bosh boshqarmaning Ekspertlar kengashi tashkil etiladi.

Ekspertlar kengashi vazifalariga dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish masalalari, shuningdek davlat unitar korxonasi tomonidan o'z vakolatlari doirasida dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika muomalasiga aloqador tasdiqlangan yo'riqnomalarda ko'zda tutilmagan masalalarni hal etish kiradi.

DVESDM direktori davlat unitar korxonasi boshlig'i tavsiyasiga asosan Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tayinlanadi.

Davlat unitar korxonasi faoliyatini moliyalashtirish DVESDM hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat unitar korxonasi O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

Davlat unitar korxonasining to'liq nomi:
davlat tilida - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi

davlat unitar korxonasi quyidagi manzilda joylashgan:
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ozod ko'chasi, K.Umarov
tor ko'chasi 16-uy.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika
ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat
unitar korxonasi o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish
uchun belgilangan tartibda ilmiy va nazorat-tahlil
laboratoriyalari, sinov markazlari, bo'limlar, hududiy filiallar,
vaqtinchalik mehnat jamoalarini tashkil etish huquqiga ega.

1.2.3. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining vazifalari

O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida Dori
vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va
standartlashtirish davlat markazi davlat unitar

korxonasi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika
muomalasi sohasida ularning sifati ustidan davlat nazoratini
tashkil etish va amalga oshirish sohasida:

DVESDM tarkibidagi sinov laboratoriyalari tomonidan dori
vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarining
normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash
maqsadida sifat nazorati sinovlarini o'tkazilishini tashkil
etadi;

sifat nazorati sinovlari natijalaridan norozi bo'lgan manfaatdor tomon shikoyatlarini ko'rib chiqish maqsadida Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi tarkibida shikoyatlarni ko'rib chiqish komissiyasini tashkil etadi;

mulkchilik shaklidan va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar farmatsevtika faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan litsenziya kelishuviga, normativ hujjatlar, texnologik reglamentlar, spetsifikatsiyalar va boshqa normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishini nazorat qiladi;

sertifikatlashtirish va metrologiya qoidalari va normalari buzilishi holatlari aniqlanganda "O'zstandart" agentligining tegishli boshqarmalariga belgilangan tartibda xabar beradi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ekspertizadan o'tkazish, standartlashtirish, ro'yxatdan o'tkazish va sertifikatlashtirish, O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalari va tibbiy buyumlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazadi va natijasi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini beradi. Zarur hollarda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini

qayta rasmiylashtirish, ularning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikatlar berish, ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini amal qilishini to'xtatib turish, amal qilishini tugatish va bekor qilish ishlarini amalga oshiradi;

mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan, xorijiy mamlakatlardan respublika hududiga olib kirilayotgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani standartlashtirish va sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etadi, sertifikatlashtirish uchun taqdim etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sifat nazoratini amalga oshiradi;

Davlat bojxona qo'mitasiga davlat ro'yxatidan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani olib kirish va olib chiqish bo'yicha ma'lumot berish, ro'yxatdan o'tkazish uchun namunalar, insonparvarlik yordami yo'li bilan, ilmiy-tadqiqot ishlari, ko'rgazmalarda qatnashish, kam uchraydigan kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan Orfan dori vositalari, alohida shaxslar tomonidan qo'llaniladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni va boshqalarni olib kirish masalalarini ko'rib chiqadi va ma'lumot beradi;

tegishli mutasaddi tashkilot va muassasalarning murojaatlariga asosan favqulodda holatlar, shu jumladan alohida epidemiologik sharoitlarning oldini olish, aniqlash va davolashda aholiga zudlik bilan tibbiy sanitar yordamini

tashkil etishda qo'llaniladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni respublikaga bir marotaba olib kirish va qo'llash bo'yicha xulosalar beradi;

respublika hududida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalarining dori vositalari va tibbiy buyumlarni sertifikatlashtirish ishlarini muvofiqlashtiradi

va tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatadi;

"O'zstandart" agentligiga sertifikatlashtirish natijalari va berilgan muvofiqlik sertifikatlari bo'yicha ma'lumot beradi;

sertifikatlashtirish jarayonida yaroqsiz deb topilgan mahsulotlar bo'yicha "O'zstandart" agentligiga va Davlat bojxona qo'mitasiga o'rnatilgan tartibda tezkor ma'lumot beradi.

farmakologik vositalar, dori vositalarining klinik oldi va klinik tadqiqotlari ekspertizasi va farmakologik nazoratini tashkil etish hamda tibbiy buyumlarning klinik oldi va klinik tadqiqotlari ekspertizasini tashkil etish sohasida:

farmakologik vositalar, dori vositalari va tibbiy buyumlarning klinik tadqiqotlarini o'tkazish uchun klinik bazalar ro'yxatini tayyorlaydi • va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etadi;

ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan farmakologik vositalar, dori vositalari va tibbiy buyumlarning klinik

tadqiqotlari o'tkazilishini belgilaydi, ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi va klinik tadqiqotlar natijalari tahlili asosida yoki klinik tadqiqotlarsiz ularni ro'yxatdan o'tkazadi yoki rad etadi;

farmakologik vositalar, dori vositalari va tibbiy buyumlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonidagi klinik tadqiqotlar, shuningdek ularni tibbiyot amaliyotida qo'llanilishida samaradorligi va xavfsizligini baholaydi;

retseptsiz beriladigan dori vositalarining ro'yxatini tuzadi va yiliga kamida bir marta tasdiqlashga taqdim etadi;

kam uchraydigan kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan Orfan dori vositalari ro'yxatini ishlab chiqadi va tasdiqlashga taqdim etadi;

Asosiy dori vositalari ro'yxatini ikki yilda kamida bir marta ishlab chiqadi va tasdiqlashga taqdim etadi;

mahalliy dori vositalari va tibbiy buyumlarni qo'llash bo'yicha taqdim etilgan yo'riqnomalarni ekspertizadan o'tkazadi va tasdiqlaydi hamda xorijiy dori vositalari va tibbiy buyumlarni qo'llash bo'yicha taqdim etilgan yo'riqnomalarni ekspertizadan o'tkazadi va ma'qullaydi.

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, kelishish va tasdiqlash sohasida:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlari: farmakopeya maqolalari (FM),

vaqtinchalik farmakopeya maqolalari (VFM), tashkilot farmakopeya maqolalari (TFM), umumiy farmakopeya maqolalarini (UFM) ekspertizadan o'tkazadi va tasdiqlaydi, shuningdek tashkilot standartlarini (TS), texnologik reglamentlarni (TR) va boshqa normativ hujjatlarni ekspertiza qiladi va kelishib beradi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarga taalluqli bo'lgan normativ hujjatlarga o'zgartirish kiritish, bekor qilish, amal qilish muddatini chegaralash, amal qilish muddatini uzaytirish va amal qilish muddati tugagan FM, VFM, TFM, UFM, TS, spetsifikatsiyalarni qayta ko'rib chiqish uchun takliflar kiritadi.

farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan litsenziya talab va shartlariga amal qilinishi, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sifatiga qo'yiladigan talablarning bajarilishi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, sotish va qo'llanilishi jarayonidagi sifat nazoratini amalga oshirish sohasida:

farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan litsenziya talab va shartlariga amal qilinishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat qiladi;

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan va realizatsiya qilinayotgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sifatining amaldagi standartlarga muvofiqligini nazorat qiladi;

qalbakilashtirilgan va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilishi va sotilishi to'g'risida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganida litsenziya bitimi talablariga muvofiq bunday mahsulot sotilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqarilayotgan hamda sotilayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ustidan sifat nazoratini amalga oshiradi;

farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish va muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Davlat farmakopeyasini shakllantirish, dori vositalari va tibbiy buyumlarning standartlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish sohasida:

Davlat farmakopeyasini besh yilda kamida bir marta chop etadi. Qayta nashrlari oralig'idagi davrda davlat farmakopeyasiga ilovalarni chop etadi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarning normativ hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida ularni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish tadbirlarini amalga oshiradi. Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reestrini yuritish sohasida:

tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika davlat reestrini yuritadi. Davlat ro'yxatiga olingan va undan chiqarilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika to'g'risidagi ma'lumotlar asosida davlat reestrini har yili yangilaydi va tegishli ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib boradi;

aholining va davolash-profilaktika muassasalarining dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlanishi bo'yicha ehtiyojni hisoblash va Sog'liqni saqlash vazirligiga tegishli takliflar kiritish sohasida:

Aholini va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalarini dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlanishini o'rganib, tahlil qiladi va natijalari bo'yicha takliflar tayyorlab, Sog'liqni saqlash vazirligiga kiritadi;

voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan dori vositalarini reklama materiallari ekspertizasini amalga oshirish sohasida:

voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan dori vositalarini reklama qilish bo'yicha arizalarni ko'rib chiqib, natijasi bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtiradi va Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etadi;

farmatsevtika sohasiga xalqaro standartlarni joriy etishni muvofiqlashtirish bo'yicha:

farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga xalqaro standartlarning joriy etilishi holatini o'rganadi va sertifikatlar beradi hamda olingan sertifikatlarga muvofiq faoliyat yuritayotganligini tasdiqlaydi.

farmatsevtika sohasiga xalqaro standartlarni joriy etishni muvofiqlashtiradi. Farmatsevtika faoliyatini xalqaro "Yaxshi laboratoriya amaliyoti" (GLP), "Yaxshi klinika amaliyoti" (GCP), "Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti" (GMP), "Yaxshi saqlash amaliyoti" (GSP), "Yaxshi distribyutorlik amaliyoti" (GDP) qoidalariga muvofiq amalga oshirish bo'yicha malaka oshirish kurslari va seminarlar, shuningdek GPP muomalasi bilan bog'liq faoliyat bo'yicha o'quv seminarlarini tashkil etadi;

mahalliy farmatsevtika korxonalari ishini takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga o'tishi bo'yicha rahbar tegishli yo'riqnoma hujjatlarni tasdiqlaydi va amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi.

dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifat nazorati borasida davlat metrologiya tekshiruvlarini tashkillashtirish va amalga oshirish sohasida:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining metrologiya xizmati bo'limi orqali o'z vakolati davlat sog'liqni saqlash tizimidagi tashkilotlar,

Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlarida foydalaniladigan tibbiy o'lchov vositalarini o'lchov natijalarining qonunlashtirilgan birliklarda belgilab qo'yilgan aniqlikda bo'lishini ta'minlashni doirasida amalga oshiradi;

mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilayotgan va xorijdan olib kirilayotgan tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertiza qiladi.

huquqni muhofaza qilish organlari va fuqarolarning murojaatlariga asosan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifati bo'yicha xulosalar berish sohasida:

huquqni muhofaza qilish organlari va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika, insonparvarlik yordami tariqasida keltirilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar sifat nazoratini amalga oshiradi. Dori vositalari va tibbiy buyumlar sifati bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelganda ularni shikoyatlarni ko'rib chiqish komissiyasida ko'rib chiqib hal qiladi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifat nazoratini amalga oshiruvchi kadrlar zaxirasini yaratish sohasida:

kadrlar zaxirasini yaratadi, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida rahbar xodimlar va mutaxassislarni tayyorlaydi hamda ularning

malakasini oshiradi, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlariga dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sifati, muomalasi bilan bog'liq yo'nalishlari bo'yicha tashkiliy-uslubiy yordamni amalga oshiradi.

1.2.4. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining huquqlari va javobgarligi

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi quyidagi huquqlarga ega:

farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan litsenziya talab va shartlariga amal qilinishi, dori vositalari va tibbiy buyumlar sifatiga qo'yiladigan talablarning bajarilishi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, sotish va qo'llanilishi jarayonidagi sifat nazoratini amalga oshirish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish, shuningdek, zarur hollarda, materiallarni chora ko'rish uchun tegishli organlarga taqdim etish;

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat ro'yxatdan o'tkazilmagan, tegishli tartibda tasdiqlangan normativ hujjatlari bo'lmagan va sifati belgilangan talablarga javob

bermaydigan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqarilishini taqiqlash;

davlat ro'yxatidan o'tgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning inson hayoti va sog'lig'iga xavf soluvchi xususiyatlari aniqlangan hollarda ularga berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalarini bekor qilish;

qalbakilashtirilgan, sifatsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarni muomaladan chiqarish va yo'q qilish uchun ko'rsatmalar berish;

farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan, qalbakilashtirilgan va sifatsiz va boshqa sabablarga ko'ra noqonuniy hisoblangan dori vositalari, tibbiy buyumlarning muomalaga kiritilishini to'xtatish uchun ko'rsatmalar berish;

rivojlanish rejalarini, xarajatlar smetasini tuzish, ularning hajmlarini va shakllantirish manbalarini, shuningdek sarflash yo'nalishlarini belgilash; asosiy vositalarni ijaraga olish yoki ijaraga berish, grantlarni va boshqa moliyaviy yordamni jalb etish;

xodimlarni ma'naviy rag'batlantirish, ularning mehnatiga haq to'lash hamda ijtimoiy muhofaza qilish, ularni moddiy rag'batlantirish miqdorlarini belgilash; o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida yaratilgan intellektual

mulk obyektlariga mualliflik huquqlarini olish va ulardan foydalanish;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq xorijiy yuridik shaxslar bilan ilmiy hamda ilmiy-texnik hamkorlikni va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda ko'rsatiladigan xizmatlar, amalga oshiriladigan ishlarning barcha turlari uchun tariflar va baholarni belgilash.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat unitar korxonasi dori vositalari tibbiy buyumlar va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ta'minlanishi, shuningdek o'ziga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

1.2.5. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi faoliyatini tashkil etish

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasiga Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat unitar korxonasi boshlig'ining o'rinbosarlari Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tayinlanadi.

Davlat unitar korxonasi boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

o'z o'rinbosarlarining vakolatlarini belgilash, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

Davlat unitar korxonasining bo'limlari hamda Dori vositalari ekspertizasi va standartizatsiyasi davlat markazi faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

davlat unitar korxonasi tuzilmasining shtatlar jadvalini tasdiqlash;

davlat unitar korxonasining bo'limlari rahbarlari lavozimiga xodimlarni Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda tayinlash;

davlat unitar korxonasi va uning bo'limlari xodimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish;

zarurat bo'lganda, davlat unitar korxonasining tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

davlat unitar korxonasi va uning bo'limlari, idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish hamda ko'rsatmalar berish;

davlat unitar korxonasining bo'limlari to'g'risidagi nizomlarni, xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini, shuningdek idoraviy mansub tashkilotlarning ustavlarini (nizomlarini) belgilangan tartibda tasdiqlash;

davlat unitar korxonasi boshlig'ining dori vositalari, tibbiy buyumlarning sifati bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha ko'rsatmalari farmatsevtika faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiydir;

davlat unitar korxonasining boshlig'i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin;

davlat unitar korxonasining boshlig'i yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun javob beradi.

Davlat unitar korxonasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.2.6. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibi

Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibini belgilaydi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish yuridik shaxslar bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga (keyingi o'rinlarda tadbirkorlik subyektlari deb ataladi) dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi (keyingi o'rinlarda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi deb ataladi) berilishini nazarda tutadi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun asos hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi 5 yil muddatga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish davrida dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hujjatlaridagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan ariza va o'zgarishlarga taalluqli hujjatlar asosida dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

Xorijiy dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hamda ular uchun ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish ushbu nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Ruxsat berishga doir talablar va shartlar

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi asosida dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani tibbiy amaliyotda qo'llashda tadbirkorlik subyekti tomonidan bajarilishi shart bo'lgan talablar va shartlar quyidagilardan iborat:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish uchun murojaat qilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan ularni tibbiy amaliyotda qo'llashda qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etish;

ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish davrida ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi egasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish to'g'risida, mazkur o'zgartirishlar kiritilishining sabablari, ularning dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning samaradorligi, xavfsizligi, sifat ko'rsatkichlariga ta'siri haqida to'liq ma'lumot keltirilgan holda axborot berish, jumladan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning samaradorligi va xavfsizligiga doir yangi ma'lumotlar to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilib turish;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaga doir texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga (keyingi o'rinlarda normativ hujjatlar deb ataladi), dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan

o'tkazish hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga qat'iy rioya etish;

ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, shuningdek dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarini hamda boshqa materiallarni taqdim etish.

1.2.7. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va namunalar

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun tadbirkorlik subyekti (yoki uning nomidan harakat qiluvchi ishonchli shaxs) bosh boshqarmaga quyidagilarni taqdim etadi:

ariza;

tadbirkorlik subyektining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

dori vositalari, tibbiy buyum yoki tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining elektron shaklidagi bir xildagi bir nusxasi va qog'oz shaklidagi bir nusxasi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida dori vositalarining uchta sanoat seriyalarida (xorijiy dori vositalari uchun bitta seriya) uch marotaba sinovlar o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan miqdordagi tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlariga muvofiq sinovlar o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan miqdordagi

standart namunalari, substansiyalar (dori moddalari), yot va o'xshash moddalar standartlari, maxsus reaktivlar va ularning sifat sertifikatlari.

Tibbiy texnika namunasining sinovlari tibbiy texnika o'rnatilgan va qo'llaniladigan joyda o'tkazilishi mumkin.

Dori vositalarini ishlab chiqarish va ishlab chiqish uchun mo'ljallangan dori moddalarining (substansiyalar) partiyasiga bir marotabalik ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun tadbirkorlik subyekti hujjatlarni taqdim etadi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va tegishli namunalar bevosita, pochta aloqa vositasi orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqidagi xabarnoma bilan birga taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar tadbirkorlik subyektining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bunda namunalar bevosita yoki pochta aloqa vositasi orqali taqdim etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun taqdim etilgan hujjatlar va tegishli namunalar ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxat hujjatlarning qabul qilingan sanasi va qabul qilgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi ko'rsatilib, imzosi qo'yilgan holda darhol tadbirkorlik subyektiga beriladi (yuboriladi).

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini olish uchun taqdim etilgan hujjatlardagi maxfiy ma'lumotlar oshkor qilinmasligi lozim.

1.2.8. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish, guvohnoma berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hamda O'zbekiston Respublikasiga dori vositalarini ishlab chiqarish maqsadlarida olib kirilayotgan dori moddalari (substansiyalar) (bundan keyingi o'rinlarda substansiyalar deb ataladi) partiyalarining bir marotabalik ro'yxatdan o'tkazish ishlarini belgilangan tartibda, tegishli bo'limlar orqali amalga oshiradi.

Tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish uchun eng kam oylik ish haqining 12 barobari miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasining hisob raqamiga o'tkaziladi. Tadbirkorlik subyekti ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish to'g'risida bergan arizasidan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Xorijiy ishlab chiqaruvchiga (yoki uning nomidan harakat qiluvchi yuridik shaxsga) ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish, unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, dublikat berish, guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, uni qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish uchun yig'im summasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan hamda yuqorida sanab o'tilgan tartibotlarni amalga oshirish uchun ketgan xarajatlari doirasida belgilanadi.

Tadbirkorlik subyektining ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish to'g'risidagi arizasi va unga ilova qilingan ro'yxatdan o'tkazish hujjatlari va namunalari qabul qilingan sanadan boshlab 180 ish kunidan (bog'lov materiallari, tibbiy maqsadlarda teshish, inyeksiya, transfuziya va so'rib olish uchun qo'llaniladigan tibbiy buyumlar, rezina, rezina mato, lateks, polimerdan tayyorlangan tibbiy buyumlar va bemorlarni parvarishlash uchun tibbiy buyumlar uchun 120 ish kunidan; qadoqlangan va o'rash-joylash materialiga joylangan farmakopeya dorivor o'simlik xom ashyosi uchun 60 ish kunidan; substansiyalarni bir marotabalik ro'yxatdan o'tkazish uchun 60 ish kunidan; avval ro'yxatdan o'tkazilgan va ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi amalda bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni "in bulk" asosida

mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ro'yxatdan o'tkazish uchun 60 ish kunidan) oshmaydigan muddatda ko'rib chiqadi, ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini beradi yoki berishni rad etadi.

Ro'yxatdan o'tkazish uchun umumiy belgilangan 180 (120,60)

ish kunidan oshmaydigan muddatga quyidagilar kiritilmaydi: dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, namunalarining sinovlari va tadqiqotlari jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ariza beruvchi tomonidan tegishli hujjatlarni taqdim etish uchun belgilangan 45 ish kunidan oshmaydigan muddat;

klirik sinovlar o'tkazish uchun tegishli tartibda kelishilgan klinik bazalarga ariza beruvchi tomonidan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarini hamda klinik sinovlar dasturlarini taqdim etish uchun belgilangan 45 ish kunidan oshmaydigan muddat;

bevosita klinik sinovlarning o'tkazilish muddatlari.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish uchun yig'im undirilmaydi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy

texnikani ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini baholash doirasida ishlab chiqarish sharoitlarini, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini, sifati, samaradorligi va xavfsizligi, qo'llashda ehtimol tutilgan nojo'ya ta'sir xavfi kutilayotgan ijobiy ta'sirdan ancha past bo'lishi to'g'risidagi, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida mustaqil ravishda yoki uchinchi tomonni yoxud xolis ekspertlarni jalb etgan holda quyidagi ekspertiza ishlari, tekshiruvlar, sinovlar, tahlillar, tadqiqotlar, o'rganishlar va ilmiy-texnik baholashlarni o'tkazishi mumkin:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish;

dori vositalari, tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish sharoitlari, ishlab chiqaruvchi muassasaning ishlab chiqarishni tashkil etish va sifat nazoratini olib borish qoidalari talablariga muvofiqligini, sifatni boshqarish tizimini (dori vositalarining sifatini muvofiqlashtiruvchi xalqaro standartlar ishlab chiqaruvchi tashkilotda joriy etilgan bo'lsa) baholash, aniqlash maqsadida inspeksion tekshiruvlar o'tkazish;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning laboratoriya sinovlari va tahlillarini o'tkazish; tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bo'lgan dori vositalari hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish;

farmakologik, toksikologik tadqiqotlar o'tkazish;
klinik oldi tadqiqotlari, bioekvivalentlik sinovlari o'tkazish.

Ro'yxatdan o'tkazish bo'limi: dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza qabul qilingandan so'ng ariza hamda unga ilova qilingan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning namunalari va ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini birlamchi (dastlabki) ekspertizadan (tekshiruvdan) o'tkazadi.

Buyurtmachi bilan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hamda substansiyalarni bir marotabalik ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha tegishli yozishmalar olib boradi;

birlamchi (dastlabki) ekspertizaning ijobiy natijalari asosida davlat markazi va arizachi o'rtasida shartnoma tuzilishini va to'lov hisobining rasmiylashtirilishini ta'minlaydi;

belgilangan yig'im summasi tadbirkorlik subyekti tomonidan to'langandan keyin dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza hamda ilova qilinadigan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning namunalari va ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun davlat markazining tegishli laboratoriyalariga, Farmakologiya, Farmakopeya, Yangi tibbiy texnika qo'mitalariga, shuningdek Narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasiga (dori vositalari tarkibida

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar mavjud bo'lgan taqdirda) taqdim etadi; substansiyalar namunalari sinovlari va hujjatlari ekspertizasi natijalari asosida Ekspertlar kengashiga substansiyalarni bir marotabalik ro'yxatdan o'tkazish yoki bir marotabalik ro'yxatdan o'tkazishni rad etish bo'yicha taklif kiritadi.

Davlat markazi laboratoriyalari:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, kimyoviy, farmatsevtik, biologik va texnik qismlarini ekspertizadan o'tkazadi;

normativ hujjatlarni baholaydi, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarining normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha sinovlar o'tkazadi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar yoki tibbiy texnika namunalarining sinovlar bayonnomalarini, ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini Farmakopeya, Farmakologiya va Yangi tibbiy texnika qo'mitalariga;

substansiyalar namunalari sinovlari bayonnomalari va hujjatlarini Ro'yxatdan o'tkazish bo'limiga taqdim etadi.

Farmakopeya qo'mitasi:

dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, kimyoviy, farmatsevtik va biologik qismlarini, laboratoriya sinovlari bayonnomalarini ekspertizadan o'tkazadi;

fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini, shuningdek ta'sir etuvchi va yordamchi moddalarning fizik-kimyoviy xossalarini hisobga olgan holda, ariza beruvchidan normativ hujjatlarga muqobil usullarni, qo'shimcha tahlil qilish ko'rsatkichlari va usullarini kiritishni yoki ularni almashtirishni talab qiladi;

mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan va takroriy ekspertizadan o'tkazadi;

qo'shimcha sinovlar, shuningdek normativ hujjatlar usullariga sinovdan o'tkazish talab qiladigan o'zgartirishlarni kiritish uchun davlat markazining tegishli laboratoriyalariga dori vositalarining namunalarini va hujjatlarini yuboradi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning normativ hujjatlarini tasdiqlaydi;

taqdim etilgan hujjatlar va ekspertlar xulosalari asosida dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida Ekspertlar kengashiga tavsiyalar beradi;

Farmakologiya qo'mitasi:

farmakologik va (yoki) dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, farmakologik, toksikologik va klinik qismlarini ekspertizadan o'tkazadi;

mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda farmakologik va (yoki) dori vositalarining hujjatlarini ekspertizadan yoki qayta ekspertizadan o'tkazadi;

odamda farmakologik vositalarning va (yoki) dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish to'g'risidagi qarorni qabul qiladi;

tadqiqot turlarini belgilaydi, klinik sinovlar o'tkazish uchun tegishli klinik bazalarni ma'qullaydi, klinik oldi tadqiqotlar va klinik tadqiqotlar bayonnomalarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar beradi va ularni ma'qullaydi;

taqdim etilgan ma'lumotlar va ekspertlar xulosalari asosida Ekspertlar kengashiga klinik tadqiqotlarsiz yoki klinik tadqiqotlar asosida dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida tavsiyalar beradi;

dori vositalarini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani yoki ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni tasdiqlaydi;

farmakologik nazorat bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi.

Yangi tibbiy texnika qo'mitasi:

tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, kimyoviy, biologik, texnik qismlarini, laboratoriya tahlillari bayonnomalarini, shuningdek klinik (tibbiy) sinovlar materiallarini ekspertizadan o'tkazadi;

mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan va takroriy ekspertizadan o'tkazadi;

tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, akkreditatsiyadan

o'tgan laboratoriyalarda yoki tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning o'rnatilgan joyida sinovlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

klirik (tibbiy) sinovlar dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar beradi va klinik (tibbiy) sinovlar dasturlarini kelishadi;

sinovlar turlarini belgilaydi, klinik (tibbiy) sinovlar o'tkazish uchun tegishli klinik bazalarni ma'qullaydi;

mahalliy ishlab chiqaruvchilar tibbiy buyumlarining qo'llash bo'yicha yo'riqnomalarni va tamg'alanishini yoki ularga kiritiladigan o'zgartirish yoki qo'shimchalarni ma'qullaydi;

tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlarini kelishishga yoki tasdiqlashga tayyorlaydi;

taqdim etilgan hujjatlar va ekspertlarning xulosalari asosida Ekspertlar kengashga tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani klinik sinovlarsiz yoki klinik (tibbiy) sinovlar asosida ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish haqida tavsiyalar kiritadi;

Giyohvand dori vositalarini nazorat qilish qo'mitasi:

tarkibida giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar mavjud bo'lgan dori vositalarining ro'yxat o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi;

tarkibida giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar mavjud bo'lgan dori vositalarini ekspertizadan o'tkazishda davlat nazoratida bo'lgan giyohvand dori

vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatida ushbu moddalarning mavjudligini, ularni tibbiyotda qo'llashga ruxsatnomalarni, shuningdek ularni shifokor retsepti bo'yicha berish zarurligini ko'rib chiqadi hamda Farmakologiya va Farmakopeya qo'mitalariga takliflar kiritadi;

Farminspeksiya: yangi dori shakli yoki tibbiy buyum va tibbiy texnikaning turini ishlab chiqarish, sifatini nazorat qilish tashkil etilgan taqdirda dori vositalari, tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish va sifatni nazorat qilish sharoitlarining ishlab chiqarishni tashkil etish hamda sifatni nazorat qilish qoidalariga muvofiqligini tekshiradi;

tekshirish natijalariga ko'ra dori vositalari, tibbiy buyumlarning tegishli turini ishlab chiqarish va sifatini nazorat qilish sharoitlarining mavjudligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi;

Xalqaro standartlarni farmatsevtika sohasiga joriy etishni muvofiqlashtirish bo'limi tekshirish natijalariga ko'ra dori vositalari, tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish korxonasining xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

Tekshirish Ekspertlar kengashining Farmakopeya, Farmakologiya yoki Yangi tibbiy texnika qo'mitalari ekspertlarining ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini

ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xulosalari asosida qabul qilinadigan qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Ekspertlar kengashi Farmakopeya, Farmakologiya, Yangi tibbiy texnika qo'mitalari, shuningdek boshqa bo'linmalar xulosalari asosida tibbiyot amaliyotida dori vositalarini, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani qo'llashga ruxsat berish yoki ruxsat berishni rad etish to'g'risida olti ish kuni mobaynida qaror qabul qiladi.

Ekspertlar kengashi qarori qabul qilingandan keyin bir ish kuni mobaynida ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish yoki uni berishni rad etish to'g'risida buyruq chiqaradi.

Quyidagilar ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berishni rad etish uchun asos bo'lishi mumkin:

ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarining va boshqa talab qilinadigan materiallarning tadbirkorlik subyekti tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilishi;

tadbirkorlik subyektining ruxsat berish talablari va shartlariga nomuvofiqligi;

tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani o'rganish, tadqiq qilish, tekshirish yoki boshqa ilmiy-texnik baholash (dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifati, xavfsizligi va samaradorligini xarakterlovchi laboratoriya yoki klinik (tibbiy) sinovlarning) yakunlari bo'yicha asoslantirilgan salbiy xulosalar olinishi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berishni boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi sabablari bo'yicha rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berishni rad etilganligi to'g'risidagi xabarnoma tadbirkorlik subyektiga yozma shaklda, rad etishning sabablari, qonunchilikning aniq normalari hamda tadbirkorlik subyekti ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi yoki beriladi (taqdim etiladi). Tadbirkorlik subyekti rad etish sabablarini bartaraf etishga va takroriy ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishga haqli bo'lgan muddat ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berishni rad etish to'g'risidagi xabarnoma olingan kundan boshlab 10 ish kunidan kam bo'lishi mumkin emas.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish uchun asos bo'lgan sabablar belgilangan muddatda tadbirkorlik

subyektı tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish va ekspertiza jarayonini davom ettirish Bosh boshqarma tomonidan sub'yektning rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi arizasi hamda rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi, ushbu bandning uchinchi xatboshida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Tadbirkorlik subyektı arizasining takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Agar rad etish sabablarining tadbirkorlik subyektı tomonidan bartaraf etilishi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifati, samaradorligi va xavfsizligi xossalarining o'zgarishiga olib kelsa, u holda ariza yangidan berilgan hisoblanadi va umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda ilgari ariza beruvchiga yozma shaklda bayon qilinmagan sabablarning keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, ilgari ko'rsatilgan sabablarning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq bo'lgan rad etish sabablarining keltirilishi bundan mustasno.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berishning rad etilgani to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin tadbirkorlik subyektı tomonidan berilgan

ariza yangidan berilgan hisoblanadi va umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Tadbirkorlik subyekti ruxsat berish to'g'risidagi hujjatning berilishini rad etilishi, shuningdek mansabdor shaxsning harakati (harakatsizligi) yuzasidan shikoyat qilish huquqiga ega.

1.2.9. Ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

Tadbirkorlik subyektining ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi arizasi davlat markazi davlat unitar korxonasining tegishli bo'linmalari vakolatlari doirasida 90 ish kunidan oshmaydigan muddatda ko'rib chiqiladi. Tadbirkorlik subyektining ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikatlar berish

Tadbirkorlik subyekti qayta tashkil etilganda, uning nomi yoki joylashgan joyi o'zgarganda, faoliyat ko'rsatish joyini (pochta manzilini) o'zgartirmasdan tadbirkorlik subyekti yoxud uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan

o'tkazilgandan keyin yetti ish kuni mobaynida davlat unitar korxonasiga ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish to'g'risida, ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza berishi shart.

Hujjatlar tadbirkorlik subyekti tomonidan korxonaga bevosita yoxud pochta aloqa vositasi orqali, ularning yetkazib berilganligi yoki elektron shaklda olinganligi to'g'risidagi xabarnoma bilan birga taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar tadbirkorlik subyektining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Tadbirkorlik subyektidan ushbu bandda nazarda tutilmagan hujjatlarning taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi qayta rasmiylashtirilgungacha, ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza bergan tadbirkorlik subyekti yoki uning huquqiy vorisi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani qo'llashni ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish to'g'risida berilgan ariza asosida, vakolatli organning arizani qabul qilish sanasi to'g'risidagi belgisi bilan amalga oshiriladi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga va ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasiga o'zgartirish kiritilganidan va ro'yxatdan

o'tkazilganlik guvohnomasi tegishli ravishda qayta rasmiylashtirilganidan so'ng olti oy davomida dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani avvalgi tamg'alanishi va o'rash-joylash materialida olib kirish, realizatsiya qilish va qo'llashga ruxsat etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirishda berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalari reestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish va berish ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza tegishli hujjatlar ilova qilingan holda davlat unitar korxonasi tomonidan olingan kundan boshlab 5 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirganlik uchun tadbirkorlik subyektining ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish to'g'risidagi arizasi davlat unitar korxonasi tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi davlat markazining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddati tadbirkorlik subyektini tomonidan davlat unitar korxonasiga zarur hujjatlar ilova qilingan holda berilgan arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Ro'yxatdan

o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza uning amal qilish muddati tugashidan oldin uch oy mobaynida berilishi kerak. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirish ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun tadbirkorlik subyektining ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi davlat markazining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi yo'qolgan yoki yaroqsiz bo'lib qolgan taqdirda tadbirkorlik subyektining arizasiga binoan uning dublikati beriladi.

Davlat unitar korxonasining ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi dublikatini ariza, shuningdek ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi yaroqsiz holga kelganda - uning asl nusxasi hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi dublikati berilganligi uchun tadbirkorlik subyekti tomonidan yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat olingan kundan boshlab besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda berishi yoki yuborishi shart. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi dublikati berilganligi uchun tadbirkorlik subyektining

ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun dublikat berish to'g'risidagi ariza berilgan sanada to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi Davlat markazining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va uni bekor qilish.

Quyidagilar ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilinishini belgilangan tartibda to'xtatish uchun asos bo'ladigan, ruxsat berish talablari va shartlarining bir marotaba qo'pol ravishda buzilishiga kiradi:

davlat unitar korxonasi tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etilishini tekshiruvlardan bosh tortish;

ular uchun ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berilgan harakatlarni va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish natijasida fuqarolar hayoti va sog'lig'iga zarar yetqazish yoxud zarar yetkazilishining real xavfini paydo qilish.

Berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalari reestri davlat unitar korxonasining berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalari reestrini yuritadi va uni o'z saytlarida joylashtiradi.

Berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalari reestrida tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

tadbirkorlik subyektining nomi, uning tashkiliy-huquqiy shakli, manzili, telefoni;

dori vositasining savdo, xalqaro patentlanmagan nomi, dorining shakli, dozasi, chiqarilish shakli, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning nomi, modeli, shakli, turi, sarflash va butlovchi qismlari va boshqalar;

ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining berilgan sanasi va tartib raqami; ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, to'xtatib turish, uni bekor qilish va uning dublikatini berishning asosi va sanasi.

Berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalari reestrtdagi ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslarning ular bilan tanishishi uchun ochiq hisoblanadi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibiga ko'ra quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

dori vositalari - kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

dori moddalari (substansiyalar) — farmakologik, immunologik yoki metabolik faollikka ega bo'lgan yoxud tashxis qo'yish maqsadi uchun foydalaniladigan, tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar; tibbiy buyumlar — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek, odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

tibbiy texnika — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek, odam organizmining holati va funksiyalarini aniqlash hamda o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan apparatlar, uskunalar, priborlar, asboblar, qurilmalar va majmualar;

farmakologik vositalar — muayyan dori shakliga, klinikagacha tadqiqotlarda aniqlangan farmakologik faollikka va xavfsizlikka ega bo'lgan, klinik tadqiqot obyektlari bo'lgan modda yoki moddalar aralashmasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi (keyingi o'rinlarda Davlat markazi deb ataladi) - Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining dori

vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish, sifat nazorati, standartlashtirish va sertifikatlashtirishni amalga oshiradigan ishchi organi;

ariza beruvchi -Davlat markaziga dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatdan o'tkazish va guvohnoma olish uchun murojaat qiluvchi tadbirkorlik subyekti, yuridik shaxs (yoki uning nomidan harakat qiluvchi ishonchli vakil);

ro'yxatdan o'tkazish hujjatlari — dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazishda Davlat markaziga taqdim etiladigan hujjatlar;

dorivor o'simlik xom ashyosi — dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun foydalaniladigan, tarkibida biologik faol moddalar bo'lgan o'simliklar yoki ularning qismlari;

retsept — vrachning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori preparatini tayyorlash va (yoki) berish hamda uning qo'llanish usuli to'g'risidagi yozma ko'rsatmasi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish ariza beruvchilarga guvohnoma berilishini nazarda tutadi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish va guvohnoma berish Davlat markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar ro'yxatdan o'tkaziladi:

dori vositalari;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining yangi kombinatsiyalari;

ilgari O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan, biroq boshqacha dori shakllarida, dozalarda yoki boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalari;

tibbiy buyumlar;

tibbiy texnika.

Tarkibida turli dori moddalari bo'lgan dori vositalarini bir xildagi savdo nomi ostida hamda bir ishlab chiqaruvchi tomonidan turli savdo nomlari ostida ishlab chiqilgan, tarkibi bir xil bo'lgan dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar hamda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun olib kiriladigan, klinikagacha tadqiqotlar, klinik tadqiqotlar o'tkazish va davlat ro'yxatidan o'tkazish, ko'rgazmalarda, yarmarkalarda, xalqaro anjumanlarda namoyish etish uchun mo'ljallangan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ro'yxatdan o'tkazilmaydi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish natijalariga ko'ra amal qilish muddati besh yil bo'lgan guvohnoma beriladi.

Guvohnoma dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Xorijiy dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hamda ular uchun guvohnoma berish ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Ruxsat berishga doir talablar va shartlar

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi asosida tibbiyot amaliyotida qo'llanilishida ariza beruvchi tomonidan bajarilishi shart bo'lgan talablar va shartlar quyidagilardan iborat:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish uchun murojaat qilgan ariza beruvchi tomonidan ularning tibbiyot amaliyotida qo'llanilishida qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etish;

guvohnomaning amal qilish davrida ariza beruvchi tomonidan Davlat markaziga ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni taqdim etish;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaga doir texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar (keyingi o'rinlarda normativ hujjatlar deb ataladi) talablariga,

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga qat'iy rioya etish;

Davlat markazi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, shuningdek, dori vositalari, tabiiy buyumlar va tibbiy texnika namunalari hamda boshqa materiallarni taqdim etish.

1.2.10. Guvohnomani olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va namunalar

Guvohnomani olish uchun ariza beruvchi Davlat markaziga quyidagilarni taqdim etadi:

dori vositasining uch marotaba sinovlar o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan miqdordagi bir sanoat seriyasidagi namunalari; tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlarga muvofiq sinovlar o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan miqdordagi namunalari,

faol ta'sir etuvchi moddalar, dori moddalari (substansiyalar), yot va o'xshash moddalarning standart namunalari, nazorat materiallari, maxsus reaktivlar va ular sifatini tasdiqlovchi hujjatlar.

Davlat ro'yxatidan o'tkazishga taqdim etilgan dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazishda GCP (zarur tarzda klinik amaliyoti) qoidalariga muvofiq ariza beruvchi tomonidan klinik bazalarga (davolash-profilaktika muassasalariga) dori vositalarining klinik tadqiqotlar

o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlari (klinik tadqiqotlar bayonnomasi, tadqiqotchi broshyurasi va boshqalar) va namunalari taqdim etiladi.

Guvohnomani olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar Davlat markaziga bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqidagi xabarnomani olgan holda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar ariza beruvchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalari bevosita yoki pochta aloqasi vositalari orqali taqdim etiladi.

Davlat markazi ro'yxatdan o'tkazish hujjatlaridagi maxfiy ma'lumotlarning oshkor qilinishi uchun javob beradi.

Arizani ko'rib chiqish, guvohnoma berish yoki uni berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish

Guvohnoma berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun ariza berilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida yig'im undiriladi.

Yig'im summasi Davlatmarkazi hisob raqamiga o'tkaziladi.

Ariza beruvchi bergan arizasidan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning xorijiy ishlab chiqaruvchisining (yoki uning nomidan harakat qiluvchi ishonchli vakilning) arizasini ko'rib chiqish va guvohnoma berish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritish, guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, uni qayta rasmiylashtirish va dublikat berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish uchun yig'im summasi davlat markazining ko'rsatib o'tilgan tartibotlarni amalga oshirish uchun ketgan xarajatlari asosida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan preyskurantga ko'ra amalga oshiriladi.

Guvohnoma berish to'g'risidagi ariza davlat markazi tomonidan ariza quyidagilardan oshmaydigan muddatlarda ko'rib chiqiladi:

50 kun — dori moddalari (substansiyalar) uchun;

120 kun — qadoqlangan va o'rash-joylash materialiga joylangan farmakopeya dorivor o'simlik xomashyosi shaklidagi dori vositalari, bog'lov materiallari, teshish, inyeksiya, transfuziya va so'rib olishga mo'ljallangan buyumlar, kontratseptivlar, rezina, rezina mato, lateks, polimerdan tayyorlangan tibbiy buyumlar, bemorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, bemorlarni parvarish qilish uchun tibbiy buyumlar.

155 kun — qolgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika uchun.

Quyidagi muddatlar yuqorida ko'rsatilgan muddatlarga kiritilmaydi:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ekspertizadan o'tkazish jarayonida aniqlangan

kamchiliklarni bartaraf etish uchun belgilangan 45 kundan oshmaydigan muddat;

klirik sinovlar o'tkazish uchun klinik bazalarga ariza beruvchi tomonidan tegishli tartibda kelishilgan klinik sinovlar dasturlarini, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarini taqdim etish uchun belgilangan 45 kundan oshmaydigan muddat;

jenerik dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazishning bevosita bir yildan oshmaydigan, original dori vositalarining klinik tadqiqotlarini o'tkazishning uch yildan oshmaydigan muddatlari.

Dori moddalarini (substansiyalarni) ro'yxatdan o'tkazishda klinik tadqiqotlar o'tkazilmaydi.

Guvohnoma berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobari miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi davlat markazi hisob raqamiga o'tkaziladi.

Davlat markazi tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab bir ish kunidan kechiktirmay ariza beruvchiga guvohnomani berishi (yuborishi) yoki bunday hujjatni berishning rad etilganligi to'g'risida uni yozma shaklda, jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi kerak.

Davlat markazi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini baholash doirasida ishlab chiqarish sharoitlarini, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlar

talablariga muvofiqligini, sifati, samaradorligi va xavfsizligi, qo'llashda kutilayotgan samaraning inson salomatligi xavfiga nisbatini dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida mustaqil ravishda yoki uchinchi shaxslarni yoxud mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda quyidagi ekspertiza ishlari, tekshiruvlar, sinovlar, tahlillar, tadqiqotlar, o'rganishlar va ilmiy-texnik baholashlarni o'tkazishi mumkin:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlari ekspertizasi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqarish sharoitlarining ishlab chiqarishni tashkil etish va sifat nazoratini olib borish qoidalari talablariga muvofiqligini, sifatni boshqarish tizimini baholash va aniqlash maqsadida inspeksion tekshiruvlar;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarining sinovlari va tadqiqotlari;

tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bo'lgan dori vositalari hujjatlari ekspertizasi;

farmakologik, toksikologik tadqiqotlar;

klirikagacha tadqiqotlar, bioekvivalentlik sinovlar.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat markazi tomonidan ko'rsatilgan muddatlarda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ro'yxatdan o'tkazish bo'limi:

ariza qabul qilinganidan so'ng ariza hamda unga ilova qilingan ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini va dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning namunalarini birlamchi (dastlabki) ekspertizadan o'tkazadi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha ariza beruvchi bilan tegishli yozishmalar olib boradi;

birlamchi (dastlabki) ekspertizaning ijobiy natijalari asosida davlat markazi va ariza beruvchi o'rtasida shartnoma tuzilishini ta'minlaydi va to'lov varaqasini rasmiylashtiradi;

belgilangan yig'im summasi ariza beruvchi tomonidan to'langandan keyin ariza hamda ilova qilinadigan namunalar va hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish uchun davlat markazining laboratoriyalariga, Farmakologiya, Farmakopeya, Yangi tibbiy texnika qo'mitalariga, Narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasiga (dori vositalari tarkibida giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar mavjud bo'lgan taqdirda) taqdim etadi;

Davlat markazi laboratoriyalari:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, kimyoviy, farmatsevtik, biologik va texnik qismlarini ekspertizadan o'tkazadi;

normativ hujjatlarni baholaydi, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarining normativ

hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha sinovlar o'tkazadi;

sinovlar bayonnomalarini, ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini Farmakopeya, Farmakologiya va Yangi tibbiy texnika qo'mitalariga taqdim etadi.

Farmakopeya qo'mitasi:

dori vositalari ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, kimyoviy, farmatsevtik va biologik qismlarini, laboratoriya sinovlari bayonnomalarini ekspertizadan o'tkazadi;

milliy va xalqaro standartlar talablari bilan muvofiqlashtirish maqsadida ariza beruvchidan normativ hujjatlarga muqobil usullarni va qo'shimcha ko'rsatkichlar, normalar va sinov usullarini kiritishni talab qiladi;

mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda dori vositalari va farmakologik vositalarning hujjatlarini ekspertizadan va takroriy ekspertizadan o'tkazadi;

qo'shimcha sinovlar o'tkazish uchun Davlat markazining laboratoriyalariga dori vositasining namunalari va hujjatlarini yuboradi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning normativ hujjatlarini tasdiqlaydi;

taqdim etilgan hujjatlar va ekspertlar xulosalari asosida dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi tavsiyalarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

tomonidan tashkil etilgan Ekspertlar kengashiga (keyingi o'rinlarda Ekspertlar kengashi deb ataladi) kiritadi;

Farmakologiya qo'mitasi:

farmakologik va dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, farmakologik, toksikologik va klinik qismlarini ekspertizadan o'tkazadi;

mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda farmakologik va dori vositalarining hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi;

quyidagi hollarda dori vositasini klinik tadqiqotlarsiz qo'llash mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi:

dori vositasini ishlab chiqaruvchi mamlakatda, shuningdek boshqa mamlakatlarda (mamlakatda) ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi tasdiqlangan ma'lumotlar mavjud bo'lganda;

dori vositasining GMP (zarur tarzda ishlab chiqarish amaliyoti) talablariga muvofiq ishlab chiqarilganligi va klinik tadqiqotlarning GSP (zarur tarzdagi klinika amaliyoti) talablariga muvofiq o'tkazilganligi, farmakologik nazorat tizimining GVP (farmakologik nazorat amaliyoti) yo'lga qo'yilganligi, shuningdek immunobiologik preparatlar uchun — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qayta malakalanganligi to'g'risidagi tasdiqlangan hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda;

farmakologik yoki dori vositalarining odamda klinik tadqiqotlarini o'tkazish to'g'risidagi qarorni qabul qiladi;

tadqiqotlar turlarini belgilaydi, klinik tadqiqotlar o'tkazish uchun klinik bazalarni ma'qullaydi, klinik tadqiqotlar dasturlari va bayonnomalarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar beradi va ularni ma'qullaydi;

taqdim etilgan hujjatlar va ekspertlarning xulosalari asosida Ekspertlar kengashiga klinik tadqiqotlarsiz yoki klinik tadqiqotlar asosida dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi tavsiyalarni ko'rib chiqish uchun kiritadi;

dori vositalarini tibbiyotda qo'llash bo'yicha yo'riqnomalarni yoki ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni kelishadi va tasdiqlaydi;

farmokologik nazorat bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

Yangi tibbiy texnika qo'mitasi:

tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining ma'muriy, kimyoviy, biologik, texnik qismlarini, laboratoriya sinovlari bayonnomalarini, shuningdek, klinik tadqiqotlar materiallarini ekspertizadan o'tkazadi;

mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda tibbiy buyumlarning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan va takroriy ekspertizadan o'tkazadi;

tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda yoki tibbiy buyumlar va tibbiy

texnika o'rnatilgan joyda sinovlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

klirik tadqiqotlarning dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar beradi va klinik tadqiqotlar dasturlarini kelishadi; tadqiqotlar turlarini belgilaydi, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning klinik tadqiqotlarini o'tkazish uchun klinik bazalarni (davolash-profilaktika muassasalarini) ma'qullaydi; mahalliy ishlab chiqaruvchilar tibbiy buyumlarining va tibbiy texnikasining qo'llash (ekspluatatsiya qilish) bo'yicha yo'riqnomalarini va markirovkasini yoki ularga kiritiladigan o'zgartirish yoki qo'shimchalarni kelishadi;

tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning normativ hujjatlarini kelishishga yoki tasdiqlashga tayyorlaydi;

taqdim etilgan hujjatlar va ekspertlarning xulosalari asosida Ekspertlar kengashiga tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani klinik sinovlarsiz yoki klinik tadqiqotlar asosida ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish haqida tavsiyalarni ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasi:

tarkibida giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar mavjud bo'lgan dori vositalarining ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi;

tarkibida giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar mavjud bo'lgan dori vositalarini ekspertizadan o'tkazishda davlat nazoratida bo'lgan giyohvand vositalar,

psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatida ushbu moddalarning mavjudligini, ularni tibbiyotda qo'llashga ruxsatnomalarni, shuningdek, ularni shifokor retsepti bo'yicha berish zarurligini ko'rib chiqadi hamda Farmakologiya va Farmakopeya qo'mitalariga takliflar kiritadi;

Farminspeksiya:

yangi dori shakli yoki tibbiy buyum turini ishlab chiqarish, sifatini nazorat qilish tashkil etilgan taqdirda dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish va sifatni nazorat qilish sharoitlarining ishlab chiqarishni tashkil etish hamda sifatni nazorat qilish qoidalariga muvofiqligini tekshiradi;

tekshirish natijalariga ko'ra dori vositasi, tibbiy buyumlar tegishli turini ishlab chiqarish va sifatini nazorat qilish sharoitlarining mavjudligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi;

Xalqaro standartlarni farmatsevtika sohasiga joriy etishni muvofiqlashtirish bo'limi tekshirish natijalariga ko'ra dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqaruvchi xorijiy korxonalarning xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

Tekshirish Ekspertlar kengashining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Ekspertlar kengashi Farmakopeya, Farmakologiya, Yangi tibbiy texnika qo'mitalari, shuningdek Davlat markazining

boshqa bo'linmalari xulosalari asosida dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berish yoki ruxsat berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Quyidagilar guvohnoma berishni rad etish uchun asos bo'lishi mumkin:

guvohnoma berish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning, dori vositalari va tibbiy buyumlar va tibbiy texnika namunalarining va boshqa talab qilinadigan materiallarning ariza beruvchi tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilishi;

ariza beruvchining ruxsat berish talablari va shartlariga nomuvofiqligi;

ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifati, xavfsizligi va samaradorligini tavsiflovchi laboratoriya sinovlari, klinik tadqiqotlar, ishlab chiqarishni tekshirish yoki boshqa ilmiy-texnik baholash (dori vositalari va tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish) yakunlari bo'yicha asoslangan salbiy xulosalarning olinishi.

Guvohnoma berishning boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan, maqsadga muvofiq emasligi sabablari bo'yicha rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Guvohnomani berishning rad etilganligi to'g'risidagi xabarnoma ariza beruvchiga yozma shaklda, shuningdek, axborot tizimi orqali elektron shaklda, rad etishning sabablari, qonun hujjatlarining aniq normalari hamda ariza beruvchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi). Ariza beruvchi rad etish sabablarini bartaraf etishga va takroriy ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishga haqli bo'lgan muddat guvohnoma berishni rad etish to'g'risidagi xabarnoma olingan kundan boshlab 10 ish kunidan kam bo'lishi mumkin emas.

Guvohnoma berish uchun asos bo'lgan sabablar belgilangan muddatda ariza beruvchi tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish va ekspertiza jarayonini davom ettirish Davlat markazi tomonidan ariza beruvchining rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi arizasi hamda rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi. Arizaning takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Agar rad etish sabablarining ariza beruvchi tomonidan bartaraf etilishi dori vositalari va tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifati, samaradorligi va xavfsizligi xossalarining o'zgarishiga olib kelsa, u holda ariza yangidan berilgan hisoblanadi va davlat markazi tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda davlat markazi tomonidan ilgari ariza beruvchiga yozma shaklda yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda bayon qilinmagan sabablarning keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, ilgari ko'rsatilgan sabablarning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq bo'lgan rad etish sabablarining keltirilishi bundan mustasno.

Guvohnoma berishning rad etilgani to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin ariza beruvchi tomonidan berilgan ariza yangidan berilgan hisoblanadi va davlat markazi tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Ariza beruvchi guvohnoma berishning rad etilishi, shuningdek davlat markazi mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Guvohnomaning amal qilish muddati o'tgach dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va tibbiy texnikani realizatsiya qilishga hamda tibbiyot amaliyotida qo'llashga,

agar ular ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilishi davrida ishlab chiqarilgan bo'lsa, ruxsat etiladi. Bunda dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning sifat nazoratini guvohnomaning amal qilish muddatida tasdiqlangan normativ hujjatlar talablariga muvofiq o'tkazilishiga ruxsat beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaning ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar guvohnomaning amal qilish muddati davomida o'zgargan taqdirda ariza beruvchi davlat markaziga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi ariza bilan tegishli hujjatlar, namunalar va standartlarni (zarur hollarda) ilova qilgan holda murojaat qiladi.

O'zgartirishlar dori vositasi, tibbiy buyum va tibbiy texnikaning sifati, samaradorligi va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda davlat markazi ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni rad etadi.

Ariza beruvchining ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi arizasi davlat markazining tegishli bo'linmalari vakolatlari doirasida quyidagilardan oshmaydigan muddatlarda ko'rib chiqiladi:

45 kun — dori moddalari (substansiyalar) uchun;

60 kun — qadoqlangan va o'rash-joylash materialiga joylangan farmakopeya dorivor o'simlik xomashyosi shaklidagi dori vositalari, bog'lov materiallari, teshish, inyeksiya, transfuziya va so'rib olishga mo'ljallangan buyumlar, kontratseptivlar, rezina, rezina mato, lateks, polimerdan tayyorlangan tibbiy buyumlar, bemorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, bemorlarni parvarish qilish uchun tibbiy buyumlar.

90 kun — qolgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika uchun.

Ariza beruvchining ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun guvohnoma berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish guvohnomada keltirilgan ma'lumotlarni o'zgartirishni talab qilgan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish amalga oshiriladi.

Guvohnomani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikatlar berish

Ariza beruvchi qayta tashkil etilganda, uning nomi yoki joylashgan joyi o'zgarganda ariza beruvchi yoxud uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yetti ish kuni mobaynida davlat markaziga guvohnomani qayta

rasmiylashtirish to'g'risida, ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza berishi shart. Hujjatlar ariza beruvchi tomonidan davlat markaziga bevosita yoxud pochta aloqasi vositalari orqali, ularning yetkazib berilganligi yoki elektron shaklda olinganligi to'g'risidagi xabarnoma bilan birga taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar ariza beruvchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ariza beruvchidan ushbu bandda nazarda tutilmagan hujjatlarning taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi. Guvohnoma qayta rasmiylashtirilgungacha guvohnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza bergan ariza beruvchi yoki uning huquqiy vorisi dori vositasi va tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani qo'llashni guvohnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risida berilgan ariza asosida davlat markazining arizani qabul qilish sanasi to'g'risidagi belgisi bilan amalga oshiriladi.

Guvohnomani qayta rasmiylashtirishda davlat markazi berilgan guvohnomalar reestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

Guvohnomani qayta rasmiylashtirish va berish guvohnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza tegishli hujjatlar ilova qilingan holda davlat markazi tomonidan olingan kundan boshlab 5 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Guvohnomani qayta rasmiylashtirganlik uchun ariza beruvchining guvohnomani berish to'g'risidagi arizasi davlat markazi tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi davlat markazining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Guvohnomaning amal qilish muddati ariza beruvchi tomonidan davlat markaziga berilgan arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza davlat markaziga uning amal qilish muddati tugashidan uch oy oldin berilishi kerak. Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish guvohnomani berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun ariza beruvchining guvohnomani berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi davlat markazining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Guvohnoma yo'qolgan yoki yaroqsiz bo'lib qolgan taqdirda ariza beruvchining arizasiga binoan uning dublikati beriladi.

Davlat markazi guvohnoma dublikatini ariza, shuningdek guvohnoma yaroqsiz holga kelganda uning asl nusxasi hamda guvohnoma dublikati berilganligi uchun ariza beruvchi tomonidan yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat

olingan kundan boshlab besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda berishi (yuborishi) shart.

Guvohnomaning dublikati berilganligi uchun davlat markazi tomonidan ariza beruvchining guvohnomani berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun dublikat berish to'g'risidagi ariza berilgan sanada to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi davlat markazining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va uni bekor qilish

Guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va uni bekor qilish «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining nazarda tutilgan holatlarda va tartibda amalga oshiriladi.

Quyidagilar guvohnomaning amal qilinishini belgilangan tartibda to'xtatish uchun asos bo'ladigan, ruxsat berish talablari va shartlarining bir marotaba qo'pol ravishda buzilishiga kiradi:

Davlat markazi tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etilishining tekshiruvlaridan bosh tortish;

berilgan tegishli ruxsat bilan bog'liq harakatlar va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish natijasida fuqarolar

hayoti va sog'lig'iga zarar yetqazish yoxud zarar yetqazilishining real xavfini paydo qilish.

Berilgan guvohnomalar reestri

Davlat markazi berilgan guvohnomalar reestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida joylashtiradi.

Berilgan guvohnomalar reestrda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

ariza beruvchining nomi, uning tashkiliy-huquqiy shakli, manzili, telefoni;

dori vositasining savdo, xalqaro patentlanmagan nomi, dorining shakli, dozasi, chiqarilish shakli, tibbiy buyum va tibbiy texnikaning nomi;

guvohnoma berilgan sana va tartib raqami;

guvohnomaning amal qilish muddati;

guvohnomani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirishning asoslari va sanasi;

guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish va amal qilishini tiklashning asoslari va sanasi

guvohnomaning amal qilishini to'xtatishning asoslari va sanasi

guvohnomani bekor qilishning asoslari va sanasi

guvohnoma dublikatini berishning asoslari va sanasi.

Berilgan guvohnomalar reestrda ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslarning ular bilan tanishishi uchun ochiq hisoblanadi.

1.2.11. Dori vositalarini sifatini nazorat qilish laboratoriyasi ishini tashkil qilish

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha laboratoriya yoki markazlar O'zbekiston Respublikasi dori vositalari va tibbiy texnika sifatini ta'minlovchi nazorat ruxsatnoma tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha vakolatli laboratoriyaning asosiy qismi sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanib ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasiga moliyaviy ishlar bo'yicha hududiy davlat organlariga bo'ysunadi.

Laboratoriya o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, qarorlari Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlari, yo'riqnomalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga amal qiladi. Laboratoriyaning tashkiliy tuzilishi va xodimlarning shtati asosiy vazifalari bajariladigan ish hajmi va amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq ravishda aniqlanadi.

Laboratoriya unga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini va xodimlar mehnat faoliyatining xavfsizligini ta'minlovchi, shuningdek loyihalashtirishning qurilish me'yorlari talablariga javob beruvchi binoda joylashgan bo'lishi kerak. Laboratoriya yuridik shaxs hisoblanadi uning moliyaviy mablag'larini saqlash va barcha turdagi hisob-kitob kredit va

kassa operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida bankda mustaqil balans hisobi va boshqa hisob raqamlari bo'ladi alohida mulkka nomi va rekvizitlari keltirilgan shtamp va muhrga egadir.

Laboratoriya ish faoliyatini yuritish uchun dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi davlat unitar korxonasi va "O'zstandart" agentligi akkreditatsiyasidan o'tgan va litsenziya olgan bo'lishi kerak.

Asosiy vazifasi. Laboratoriya dori vositalari va tibbiy texnika sifati bo'yicha davlat nazorati ro'yxatga olinadigan keyingi hamda davomli nazorat o'tkazadi.

Laboratoriya asosiy faoliyatiga muvofiq ravishda quyidagi vazifalarini bajaradi:

tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga muvofiq dori vositalarini sertifikatlashtirish va tanlab nazorat qilishni amalga oshiradi.

Dorixona muassasalari va tashkilotlarida tarkibida yurak glikozidlari saqlovchi dori vositalari hamda dorivor o'simlik xom ashyolarining biologik sifati nazoratini amalga oshiradi.

Agar laboratoriyaning mikrobiologik xizmati mavjud bo'lsa dorixonalarda tayyorlangan steril dori vositalaridan olingan yuvindilarning mikrobiologik tekshiruvini o'tkazadi. Sifatsiz dori vositalari aniqlangan hollarda tezlikda bu dori

vositalarining sotilishini to'xtatib turish kerakligi haqidagi xulosani bosh boshqarmaga taqdim etadi.

Shartnoma asosida belgilangan tartibda farmatsevtik faoliyat yuritish uchun litsenziyaga ega yuridik shaxslardan kelgan dori vositalari sifatini tekshiradi va sertifikatlar beradi. Zarur holatlarda dorixona muassasalari va korxonalariga farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya berish yoki litsenziya berishni asoslangan holda rad etish haqida xulosa chiqarish uchun litsenzion hay'at ishida ishtrok etadi.

1.2.12. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi to'g'risida gapirib bering.
2. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika xizmatini nazorat-ruxsatnoma tizimini shakllantirish.
3. «Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi davlat markazi» davlat unitar korxonasining tarkibiy qismlari, ularning vazifalari.
4. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ro'yxatdan o'tkazish tartibi haqida so'zlab bering.
5. Nazorat-analitik laboratoriyasining xonalari va ularning jihozlanishi.
6. Nazorat-analitik laboratoriyasining vazifalari.

1.2.13. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Vazifa 1. Klaster usulidan foydalanib, «Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi davlat markazi» davlat unitar korxonasining vazifalarini ish daftaringizga yozing.

Vazifa 2. Mavzuning asosiy tayanch iboralari asosida «BBB» usuli bo'yicha quyidagi jadvalni ish daftaringizga to'ldiring.


Bilaman	Bilib oldim	Bilishni istayman

Vazifa 3. "Esse" usuli orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yoritib bering. **Esse** (frans. — urinish, sinash, ocherk) — erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse usuli orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy, ommabop yoki sof belletristik xarakterda bo'ladi. Esse. uslubi obrazliligi, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. O'zbek adabiyotida 20-asrning 70—80- yillaridan yaratila boshlandi. Esse hajmi taklif qilingan mavzudagi 1000 so'zdan 5000 so'zgacha

bo'lgan asardir. Esse-bu muallifning alohida individual pozitsiyasiga ega erkin shakldagi bayoni bo'lib, qandaydir buyum yoki qandaydir sabab bo'yicha umumiy yoki oldindan bildirilgan fikr mulohazalardan iborat bo'ladi.

Vazifa 4. Ushbu mavzu bo'yicha "Assesment" usulidan foydalaning va jadvalni ish daftaringizga to'ldiring.

Vazifa 5 Mavzudagi asosiy atamalar bilan "Baliq skeleti" tuzing va ularning ta'rifini keltiring.



Vazifa 6. Blitz so'rov savollari

1. Nazorat ruxsatnoma tizimining bosqichlari.
2. "DVESDM" davlat unitar korxonasining vazifalari.
3. Farmakologik, Farmakopeya qo'mitalarining vazifalari.
4. Yangi tibbiy texnika, Narkotiklar nazorati qo'mitalarining vazifalari.
5. "DVESDM" davlat unitar korxonasining bo'limlari.
6. Qayd etish byurosining vazifalari.
7. Nazorat analitik laboratoriyasining vazifalari.
8. Nazorat analitik laboratoriyasi xonalarining jihozlanishi.

Vazifa 7. Nazorat analitik laboratoriyasining vazifalarini Klaster usulida aks ettiring.

Vazifa 8. «Bumerang» usulida vazifani ish daftaringizda bajaring.

Ikkita guruh tuziladi.

Birinchi guruh

1. Nazorat analitik laboratoriyasida rasmiylashtiriladigan hujjatlarni aytib bering.

2. Nazorat analitik laboratoriyasidagi xonalar.

Ikkinchi guruh

1. Nazorat analitik laboratoriyasida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan talablar.

2. Nazorat analitik laboratoriyasidagi xonalarning jihozlanishi.

1.2.14. Testlar

1. Davlat unitar korxonasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

A. Yangi dorivor vositalar uchun normativ-texnik hujjatlar loyihasi to'g'risida xulosa berish;

B. Dori vositalari sifatini nazorat qilishning amaliy usullarini takomillashtirish;

C. Yangi dorilarni yaratish bo'yicha ilmiy ishlar;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

2. Qanday qo'mita farmakopeya maqolalarini tayyorlaydi?

A. Farmakopeya

B. Farmakologik

C. Giyohvand moddalarni nazorat qilish

D. Yangi tibbiy asboblarni qo'mitasi

3. Qaysi qo'mita respublikaga tibbiy uskunalar olib kirish uchun ruxsatnoma beradi?
- A. Farmakopeya
 - B. Farmakologik
 - C. Giyohvand moddalarni nazorat qilish
 - D. Yangi tibbiy asboblarni qo'mitasi
4. Farmakologiya va farmakopeyalar qo'mitalarini tashkil etish to'g'risidagi qaror qachon qabul qilindi?
- A. 06.03.1992
 - B. 13.12.1996
 - C. 25.05.1995
 - D. 25.04.1997
5. Davlat unitar korxonasi qachon yaratilgan?
- A. 2017 yil sentyabr
 - B. 2016 yil sentyabr
 - C. 2014 yil sentyabr
 - D. 2002 yil sentyabr
6. Farmakologiya qo'mitasi vazifalariga nimalar kiradi?
- A. Klinik tadqiqotlar o'tkazish
 - B. Dorilar ro'yxatini ro'yxatdan o'tkazish
 - C. Yangi dorilar ta'sirini o'rganish
 - D. Eski dorilarni ro'yxatdan chiqarib tashlash
7. Quyida keltirilgan qaysi qo'mitalar davlat unitar korxonasi tarkibiga kiradi?
- A. Yangi tibbiy uskunalarni bo'yicha qo'mita
 - B. Giyohvand moddalarni nazorat qilish qo'mitasi
 - C. Farmakopeya qo'mitasi, Farmakologiya qo'mitasi
 - D. Barcha javoblar to'g'ri.
8. Ro'yxatga olish idorasi qanday vazifani bajaradi?
- A. Barcha dori-darmonlarni qayd qiladi.
 - B. Preparatni nazorat qiladi.

C. Psixotrop preparatlarni nazorat qiladi.

D. Zaharli preparatlarni nazorat qiladi.

9. Nazorat-tahlil laboratoriyasining vazifalari nimadan iborat?

A. Ishlab chiqarishdan

B. Tashkiliy-uslubiy

C. Maslahat va ilmiy tekshiruvlarni nazorat qilish

D. Barcha javoblar to'g'ri.

10. Farmatsevt-tahlilchi vazifalari nimadan iborat?

A. Dorixonalarda, konsentratlangan va yarim tayyor mahsulotlardan tayyorlangan preparatlarni olib qo'yish va kimyoviy tahlil qilish.

B. Dori-darmonlarni muddati o'tishidan keyin qayta nazorat qilish.

C. Dorixonalarda texnologiya, sanitar rejim va farmatsevtik tartibga muvofiqligini tekshirish.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

3 BOB. DORIXONADA GIYOHVAND DORI VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALAR VA PREKURSORLAR MUOMALASI

- 3.1. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonun hujjatlari
- 3.2. Giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash
- 3.3. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish
- 3.4. Litsenziyaning amal qilishini tugatish va litsenziyani bekor qilish
- 3.5. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish shartlari
- 3.6. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni berish, realizatsiya qilish va taqsimlash
- 3.7. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash
- 3.8. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar
- 3.9. Mustaqil bajarish uchun vazifalar
- 3.10. Testlar

Mavzuning maqsadi: O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonuni giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar

va prekursorlarning muomalada bo'lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda ularning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish, fuqarolar sog'lig'ini saqlash hamda davlat xavfsizligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi.

Talabalarga dorixonada giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi boshqa ma'lumotlar haqida ko'nikmalar shakllantirish.

3.1. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonun hujjatlari

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni 1999 yil 19 avgust, 813-I-son bo'yicha qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalar qo'llaniladi.

Asosiy tushunchalar

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

giyohvandlik (narkotik) vositalari — giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

psixotrop moddalar — psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

prekursorlar — prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari — kimyoviy tuzilishi va xossalariga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

preparat — moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi — giyohvandlik vositalari, — psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish,

ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish;

giyohvandlik (narkomaniya) — giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik;

zaharvandlik (toksikomaniya) — psixotrop moddalarga, shuningdek dorilik xususiyatiga ega bo'lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy, giyohvandlik vositalarga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik.

maxsus vakolatli organlar — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan vakolatlarga muvofiq giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasidagi boshqaruv va nazoratni amalga oshiruvchi organlar.

O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar quyidagi ro'yxatlarga kiritiladi:

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari ro'yxati

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan giyohvandlik vositalari ro'yxati

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan psixotrop moddalar ro'yxati

Muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida cheklangan prekursorlar ro'yxati

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi va matbuotda e'lon qilinadi.

3.2. Giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishiga ushbu qonunda belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar analoglarining muomalada bo'lishi taqiqlanadi.

Giyohvand dori vositalarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning asosiy turlariga bo'lgan davlat monopoliyasi

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning asosiy turlari: giyohvandlik vositalarini olib kirish (olib chiqish), taqsimlash, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish davlat monopoliyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya berishni rad etish asoslari

Quyidagilar litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'ladi:

yuridik shaxsning litsenziya olish paytida hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmay taqdim etishi;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning xavfsizligini ta'minlash uchun sharoitlar yo'qligi;

surunkali ruhiy holatining buzilganligi, giyohvandlik, zaharvandlik, alkogolizm tufayli dispanser hisobida turuvchi xodimlar mavjud bo'lsa va ular o'z xizmat vazifasi taqozosiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan erkin foydalanish imkoniga ega bo'lsa;

qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan xodimlar mavjud bo'lsa va ular o'z xizmat vazifasi taqozosiga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan erkin foydalanish imkoniga ega bo'lsa; yuridik shaxs litsenziya olish paytida taqdim etgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

litsenziya da'vogarining litsenziya talablari va shartlariga nomuvofiqligi.

Boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan litsenziya berish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

3.3. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

litsenziat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlarini buzganligi aniqlanganda; litsenziyalovchi organlarning aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini litsenziat zimmasiga yuklovchi qarorlari litsenziat tomonidan bajarilmaganda.

Litsenziyaning amal qilishini litsenziyalovchi organ o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, sud esa o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turishi mumkin.

Litsenziyalovchi organ yoki sud litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun muddat belgilashi shart. Bunda litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun sud qarorida belgilangan muddat olti oydan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan

litsenziyalovchi organ yoki sud ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida uch kun muddat ichida qaror qabul qilishi shart.

3.4. Litsenziyaning amal qilishini tugatish va litsenziyani bekor qilish

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:
litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etganda;

yuridik shaxs tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi, shuningdek yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarda litsenziya mavjud bo'lgan taqdirda qo'shib yuborilishi mustasno;

litsenziat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablarini va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda;

litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni sud yoki litsenziyalovchi organ belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;

ruxsat etilgan faoliyat turini amalga oshirish qoidalariga rioya etish yuzasidan majburiyatlar litsenziat tomonidan bir yil ichida takroran bajarilmaganda;

litsenziyalovchi organning litsenziya berish to'g'risidagi qarorining qonunga xilofligi aniqlanganda;

litsenziat tomonidan litsenziyada belgilangan faoliyat turiga rioya etilmaganda;

litsenziyaning amal qilish muddati tugaganda.

Tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Litsenziyani bekor qilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

litsenziatning arizasiga binoan;

agar litsenziat unga litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran uch oy ichida litsenziyalovchi organga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan yoki litsenziya shartnomasini imzalamagan bo'lsa;

litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, litsenziya berilgan sanadan e'tiboran bekor qilingan deb hisoblanadi.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini tugatish yoki litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish yoki litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi sud qarori litsenziatga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi. Litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish yoki litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

3.5. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish shartlari

O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga bo'lgan ehtiyojlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy etilgan tartibda belgilanadi.

Ayrim giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning muomalada bo'lishini cheklash Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish) xususiyatlari

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirishga (olib chiqishga) litsenziya, shuningdek, olib kirish (olib chiqish) huquqi to'g'risida maxsus vakolatli organ tomonidan beriladigan sertifikat bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni maxsus vakolatli organ ruxsatisiz O'zbekiston

Respublikasi hududi orqali tranzit tarzida o'tkazish taqiqlanadi.

Ushbu moddada belgilangan talablar buzilgan taqdirda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar qonun hujjatlariga muvofiq musodara etiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash maxsus ajratilgan va jihozlangan joylarda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda, yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashish

O'zbekiston Respublikasi hududida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda, yuridik shaxslar tomonidan, mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jo'natish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni pochta jo'natmalarida, shu jumladan xalqaro

pochta jo'natmalarida jo'natish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish

Yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqish faqat davlat ehtiyojlari uchun buyurtmaga muvofiq amalga oshiriladi va bu ish davlat ilmiy-tadqiqot muassasalariga mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo'lgan taqdirda topshiriladi.

Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan yangi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.6. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni berish, realizatsiya qilish va taqsimlash

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi natijasida olingan daromadlarni legallashtirish maqsadida moliyaviy operatsiyani amalga oshirgan yuridik shaxs sudning qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

Qonun talablari ijrosini tekshirish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi organlar mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlari

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatga oid tartib buzilganligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar

mavjud bo'lgan taqdirda prokuratura, ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati va bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklar yetishtirilishi ehtimoli bor yer uchastkalarini, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, foydalanish va yo'q qilish joylarini ko'zdan kechirish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash jarayonlarining belgilangan qoidalariga muvofiqligini tekshirish, zarurat bo'lganda ekspertlik tadqiqoti uchun namunalar olish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olishga monelik qilish maqsadida xonalarni muhrlab qo'yish;

nazorat vazifalarini bajarish uchun zarur tushuntirish va hujjatlar taqdim etishni talab qilish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat turlari uchun litsenziyalari bo'lgan yuridik shaxslarga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

tekshirishning boshqa choralarini amalga oshirish.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, tergov yoki prokuratura organlarining

mansabdor shaxslari giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog'liq faoliyat amalga oshirilayotgan har qanday joyga kirishi va uni ko'zdan kechirishi mumkin.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Giyohvandlik vositalari psixotrop moddalar va prekursorlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga narkologik yordam ko'rsatish

Davlat giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga ularni tekshiruvdan o'tkazish, maslahat berish, tashxis qo'yish, davolash va tibbiy-ijtimoiy tiklashdan iborat narkologik yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga narkologik yordam ularning iltimosiga ko'ra yoki ularning roziligi bilan, yoshi o'n to'rtga to'lmagan voyaga yetmaganlarga esa, ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining iltimosiga ko'ra yoxud ularning roziligi bilan ko'rsatiladi.

Davolanish kursini o'tash uchun narkologiya muassasasiga ixtiyoriy ravishda murojaat etgan giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarning iltimosiga ko'ra davolanishning sir saqlanishi ta'minlanadi.

Giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

Sog'liqni saqlash muassasalarining giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarga narkologik yordam ko'rsatish borasidagi faoliyati

Giyohvandlik va zaharvandlik tashhisi qo'yish, giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarni tekshiruvdan o'tkazish, ularga maslahat berish, ularni davolash va tibbiy-ijtimoiy tiklash davlat yoki xususiy sog'liqni saqlash tizimlarining mazkur faoliyat turi uchun litsenziya olgan muassasalarida o'tkaziladi.

Giyohvandlik, zaharvandlik tashxisi qo'yish hamda giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan vositalar va usullar qo'llaniladi.

Giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarni tibbiy hisobga olish va kuzatib borish tartibi

Giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan bemorlarni tibbiy hisobga olish va kuzatib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

3.7. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash

Giyohvandlik vositalarini qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlari doirasida davlat korxonalari va muassasalari tomonidan, muayyan giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Kiritilgan psixotrop moddalarni ushbu qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash maxsus vakolatli organ qaroriga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan, muayyan psixotrop moddalarni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Kiritilgan prekursorlarni ushbu qonunda belgilangan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlari doirasida davlat korxonalari va muassasalari tomonidan, muayyan prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziyalari bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tayyorlashni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni idishga joylash-o'rash va ularga belgi qo'yish tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni idishga joylash-o'rash va ularga belgi qo'yish qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lishi shart.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning sirtqi o'rovi mazkur o'rov butligini buzmay turib ularni olish imkoniyatini istisno etishi shart.

Tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ichki o'rovi ikkita qizil chiziq bilan belgilangan bo'lishi shart.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning o'rovi va ularga belgi qo'yish ushbu modda talablariga muvofiq bo'lmagan hollarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar belgilangan tartibda yo'q qilib tashlanadi.

Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish

Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan, I ro'yxatga kiritilgan o'simliklarni yetishtirish uchun ruxsat davlat korxonalariga ilmiy maqsadlarda maxsus vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslarga sanoat maqsadlarida mazkur faoliyat turiga doir litsenziya mavjud bo'lgan taqdirda beriladi. Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarning sanoat maqsadlarida yetishtirilishi va

muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari

Tarkibida tetragidrokannabinol giyohvandlik moddasining miqdori 0,2 foizgacha bo'lgan kannabis o'simligini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish hamda tayyorlash bilan bog'liq bo'lmagan sanoat maqsadlarida yetishtirishga, olib kirishga (olib chiqishga), qayta ishlashga, saqlashga, realizatsiya qilishga (berishga), olishga va tashishga yuridik shaxslarga mazkur faoliyat turi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda berilgan litsenziyaga asosan ruxsat etiladi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish va tayyorlash bilan bog'liq bo'lmagan, sanoat maqsadlarida yetishtirilishiga va muomalada bo'lishiga ruxsat etilgan kannabis o'simligining navlari, ularning yetishtirilish va muomalada bo'lish shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat xususiyatlari

Yuridik shaxslar_kiritilgan prekursorlarni o'zi ishlab chiqarishida foydalanish uchun mazkur faoliyat turi uchun litsenziyasi bo'lgan taqdirda, yillik ishlab chiqarish ehtiyojlaridan ko'p bo'lmagan miqdorda olishlari mumkin va olingan yoki buyurtma berilgan prekursor miqdori ushbu

ehtiyojlardan oshib ketgan har bir holat to'g'risida maxsus vakolatli organni xabardor qilishlari shart.

Kiritilgan prekursorlarning muomalada bo'lishini ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'q qilish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yo'q qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

ularning yaroqlilik muddati tugaganda;

giyohvandlik vositasi, psixotrop modda yoki precursor, ulardan foydalanish imkoniyatini istisno etuvchi kimyoviy yoki fizik ta'sirga uchraganda;

bemorlar vafotidan so'ng ularning qarindoshlaridan foydalanilmay qolgan vosita yoki modda tariqasida qabul qilinganda;

ularning giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki prekursorlarga mansubligini aniqlashning imkoni bo'lmaganda.

Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklar o'sayotgan yer uchastkalarining mulkdorlari, egalari yoki foydalanuvchilari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslar bu o'simliklarni yo'q qilib tashlashga majbur. Bundan bosh

tortilgan taqdirda mazkur o'simliklar ularning hisobidan yo'q etiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan foydalanish
Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tibbiy maqsadlarda foydalanish

Kiritilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tibbiy maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda foydalanilishi mumkin.

Tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat etilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga nisbatan dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarining ushbu qonunga zid bo'lmagan qismi tatbiq qilinadi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan tranzit tarzida o'tayotgan yo'lovchilarni davolash uchun foydalanish

O'zbekiston Respublikasi hududidan tranzit tarzida o'tayotgan bemor kiritilgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni davolanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda olib o'tishi mumkin.

Ushbu moddada ko'rsatilgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida ushlanib qolgan va davolanishni

davom ettirish uchun giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni qo'shimcha ravishda olishga muhtoj bo'lgan taqdirda bunday vositalar yoki moddalarni berish O'zbekiston Respublikasida yozib berilgan retsept asosida qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan veterinariyada foydalanish

Veterinariyada foydalaniladigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxati, shuningdek ulardan foydalanish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalanish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalanish uchun ruxsat yuridik shaxslarga mazkur faoliyat turlari uchun litsenziyalari bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ekspertlik faoliyatida foydalanish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ekspertizalar o'tkazish maqsadida foydalanish uchun ruxsat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan tezkor-qidiruv faoliyatida foydalanish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ularni nazorat ostida yetkazib berish va nazorat ostida olish, boshqa tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish uchun foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jismoniy shaxslarga berish II, III va IV ro'yxatlarga kiritilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni jismoniy shaxslarga tibbiy maqsadlarda berish bunday faoliyat turi uchun litsenziyalari bo'lgan dorixonalar va davolash-profilaktika muassasalarida amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat to'g'risida hisobot

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat turlari uchun litsenziyalari bo'lgan yuridik shaxslar o'z faoliyatlari to'g'risida maxsus vakolatli organga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot taqdim etadilar.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni inventarizatsiya qilish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat turlari uchun litsenziyalari bo'lgan yuridik shaxslar o'z tasarruflaridagi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni har oyda inventarizatsiya qilishlari hamda tovar-moddiy qimmatliklar balansini tuzishlari shart.

Balansdagi tafovutlarga oid ma'lumotlar yoki balans ma'lumotlarining o'tkazilgan inventarizatsiya natijalariga nomuvofiqligi to'g'risida bu holat aniqlanganidan so'ng uch kunlik muddat ichida ichki ishlar organlariga xabar qilinadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar miqdori va holatiga taalluqli barcha o'zgarishlar maxsus daftarlarga qayd etiladi. Bunday daftarlarni yuritish va saqlash tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi harakatlarni muvofiqlashtirish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi harakatlarni muvofiqlashtirish maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga monelik qilish choralarini moliyalash davlat budjeti mablag'lari va boshqa moliyalash manbalari hisobidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar targ'ibotining taqiqlanishi hamda reklamasining cheklanishi

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar targ'iboti, ya'ni giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqish, tayyorlash va ulardan foydalanish usullari, uslublari to'g'risidagi, ularni olish joylari haqidagi ma'lumotlarni tarqatishga qaratilgan faoliyat taqiqlanadi.

II va III ro'yxatlarga kiritilgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar reklamasi faqat tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga mo'ljallangan ixtisoslashgan bosma nashrlardagina amalga oshirilishi mumkin. Tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari bo'lgan dori vositalarining namunalarini reklama maqsadlarida tarqatish taqiqlanadi.

Tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish

Shaxs giyohvandlik bilan kasallangan, giyohvandlik vositalari ta'sirida mast holatda yoxud shifokor ko'rsatmasi bo'lmagani holda giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda

iste'mol etgan deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lsa, u tibbiy ko'rikdan o'tkazishga yuborilishi mumkin.

Shaxs o'z tanasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib o'tayotganligiga asoslar bo'lsa, u tibbiy ko'rikdan o'tkazishga yuborilishi mumkin.

Ushbu moddada ko'rsatilgan shaxslar tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish uchun tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, tergov organlari va sudning qaroriga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuboriladi.

Tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar uchun kasb faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanishning cheklanishi

Giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar shug'ullanishi uchun cheklov belgilangan kasb faoliyati turlari ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni musodara etish

qonunga xilof ravishda muomalada bo'lganligi uchun olib qo'yilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar, shuningdek ularni ishlab chiqarish va tayyorlash uchun mo'ljallangan asbob va uskunalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda musodara etiladi yoki yo'q qilinadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyat natijasida olingan yoki bunday faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan mol-mulk qonun hujjatlariga muvofiq musodara etiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin ular ustidan qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy nazorat o'rnatilishi mumkin.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni nazorat ostida yetkazib berish va nazorat ostiga olish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, bartaraf etish va ochish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'z vakolatlari doirasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni nazorat ostida yetkazib berish va nazorat ostiga olish huquqiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda egadir. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va

prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga yo'l qo'yan yuridik shaxsni tugatish

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga yo'l qo'yan yuridik shaxs sudning qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro'yxatlari kengaytirildi. Tramadol va zopiklon («sonnat») muomalada bo'lishi taqiqlangan va cheklangan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritildi.

30 oktabr 2018 Vazirlar Mahkamasining 27 oktyabrdagi qarori bilan muomalada bo'lishi taqiqlangan va cheklangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatlariga o'zgartishlar kiritildi,

Muomalada bo'lishi taqiqlangan giyohvandlik vositalarining ro'yxati 238 ta pozitsiyadan 265 ta pozitsiyaga, muomalada bo'lishi cheklanganlarining — 51 tadan 53 taga oshdi. Muomalada bo'lishi cheklangan psixotrop moddalar 4 taga (81 ta pozitsiyadan 85 ta pozitsiyaga), prekursorlar esa 3 taga (26 ta pozitsiyadan 29 ta pozitsiyaga) ko'paydi.

Jumladan, tramadol muomalada bo'lishi cheklangan giyohvandlik moddalar ro'yxatidan joy oldi. Muomalada bo'lishi cheklangan psixotrop moddalar ro'yxatiga esa zopiklon («sonnat») kiritildi.

Avvalroq tramadol, pregabalin («lirika»), zopiklon («sonnat») kabi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ro'yxatda yo'qligi sababli ular mavjud bo'lgan preparatlarni ko'chalardagi sotuvchilarni javobgarlikka tortish imkonsiz ekanini ma'lum qilgan edi.

Muomalada bo'lishi taqiqlangan giyohvandlik vositalarining ro'yxati tuzilishi o'zgartirildi. Unga kiritilgan moddalar guruhlar va kichik guruhlariga bo'lindi.

Mavzu bo'yicha to'liq ma'lumotlar FITQ fanidan darslikda batafsil yoritib berilgan.

3.8. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qanday qonun hujjatlarini bilasiz?
2. Giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash deganda nima tushuniladi?
3. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish qachon belgilanadi?
4. Litsenziyaning amal qilishini tugatish va litsenziyani bekor qilish qanday amalga oshiriladi?
5. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish shartlari haqida gapiring.

6. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni berish, realizatsiya qilish va taqsimlash qanday amalga oshiriladi?

7. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlarni ishlab

chiqarish va tayyorlash jarayonlari haqida gapiring.

3.9. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Vazifa 1. Tarqatma materiallardan foydalanib, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning ro'yxati bilan tanishing.

Vazifa 2. Giyohvand vositalarni tibbiy va ilmiy maqsadlarda ruxsat etilgan me'yorlari bilan tanishib chiqing.

Vazifa 3. Giyohvand vositalarni nazorat qilish qo'mitasining asosiy vazifalarini Klaster usulida ish daftaringizda aks ettiring.

Vazifa 4. «Assesment» usuli yordamida giyohvand moddalarni noqonuniy aylanishiga qo'yiladigan talablarni ko'rsatib o'ting va ish daftaringizda aks ettiring.

Vazifa 5. Farmatsevtika korxonalari omborxonalarida psixotrop moddalarni hisobga olish kitobida rasmiylashtiriladigan rekvizitlar bilan tanishing.

3.10. Testlar

1. Maxsus pushti blankalarga qanday dori vositalari uchun retseptlar yoziladi?

- A. Giyohvand dori vositalari
- B. Zaharli moddalar
- C. Ambulatoriya sharoitida davolanuvchi bemorlar uchun retsept
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

2. Qanday dorilar seyflarda saqlanadi?

- A. Giyohvand vositalar, toksik va psixotrop moddalar
- B. Dori vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar, etil spirti
- C. Psixotrop moddalar
- D. Prekursorlar

3. Giyohvand vositalarga ariza berish uchun qanday ma'lumotlarni kiritish kerak?

- A. Kerakli tashkilot, dumaloq muhr, imzo va dori
- B. Lotin tilida yozilgan bo'lishi kerak
- C. Dorilar lotin tilida bo'lishi kerak, muhr, imzo bilan yozilgan bo'lishi kerak
- D. Tashkilot yumaloq muhri, belgi, muhr , imzo

4. Psixotrop yoki zaharli moddalarning nomlari retseptning qaysi joyida yoziladi?

- A. Boshida
- B. O'rtasida
- C. 2 so'z orasida
- D. Oxirida

5. Giyohvand vositalarni qo'llash tamoyillari:

- A. 1000 kishi uchun

B. 100 kishi uchun

C. 10 kishi uchun

D. 1 kishi uchun

6. Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida qanday faoliyat turlari litsenziyalanadi?

A. Tibbiy faoliyat

B. Farmatsevtik faoliyat

C. Giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar

D. Barcha javoblar to'g'ri.

7. Giyohvand vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyalar qancha vaqt davomida amal qiladi?

A. 5 yil davomida amal qiladi

B. 3 yil davomida amal qiladi

C. 1 yil davomida amal qiladi

D. Muddatsiz vaqtda amal qiladi

8. Giyohvand dori vositalariga yozilgan talabnomalar necha yil davomida saqlanadi?

A. 5 yil

B. 3 yil

C. 1 yil

D. 2 yil

9. Giyohvand dori vositalarining zahirasi qanday miqdordan oshmasligi kerak?

A. bir oylik ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan miqdordan

B. 1 haftalik ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan miqdordan

C. 1,2 kunlik ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan miqdordan

D. A va B javoblar to'g'ri

10. Giyohvand dori vositalarga berilgan talabnomada qanday ma'lumotlar bo'lishi kerak?

- A. Tashkilot rekviziti, dumaloq muhr, imzo, dori vositalarini lotin tilida yozish kerak
- B. Dori vositalari lotin tilida yoziladi, muhr, imzo
- C. Tashkilotning dumaloq muhri, imzo, shtamp
- D. Shtamp, muhr, imzo

11. Giyohvand dori vositasining, psixotrop va zaharli moddalarining nomlari retseptning qaysi qismida yoziladi?

- A. Boshida
- B. Oxirida
- C. O'rtasida
- D. Orqasida

12. Signatura qaysi dori vositalariga beriladi?

- A. Giyohvand
- B. Psixotrop
- C. Kuchli ta'sir qiluvchi vositalar
- D. Barcha javoblar to'g'ri

13. Giyohvand dori vositalar qaerda saqlanishi kerak?

- A. Temir seyflarda
- B. Yog'och shkaflarda
- C. Barcha javoblar to'g'ri
- D. To'g'ri javob yo'q.

4-BOB. STATSIONAR SHAROITDA DAVOLANAYOTGAN BEMORLARNI DORI VOSITALARI BILAN TA'MINLASH

4.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida

4.2. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

4.3. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

4.4. Testlar

Mavzuning maqsadi: Talabalarga statsionar sharoitda davolanayotgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash uchun rasmiylashtiriladigan hujjatlarni yuritish, shu mavzu haqidagi me'yoriy hujjatlar to'g'risida ma'lumotlar berish.

Statsionar sharoitda davolanayotgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash haqidagi ma'lumotlar asosida ko'nikmalar shakllantirish.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri tasdiqlagan yangi nizomga ko'ra, retsept yozib berayotgan shifokor dorining xalqaro patentlanmagan nomini yozishi talab qilinadi.

Bundan keyin to'rtttadan ortiq dori boshqa mas'ul shifokor bilan kelishgan holda yozib berilishi lozim.

Bemorga bir vaqtning o'zida besh va undan ko'p dori vositasini tayinlashga qaror qilinganda bu qaror tibbiyot muassasasi bo'lim mudiri, navbatchi shifokori yoki klinik farmakolog bilan kelishish talab qilinadi.

4.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar to'g'risida

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishildi.

O'tgan davrda qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratildi, fuqarolarga, jumladan, joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda.

Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Bolalarning irsiy va tug'ma kasalliklar bilan tug'ilishining oldini olish maqsadida respublika va hududiy skrining markazlari tashkil etildi.

Natijada 1991 — 2017 yillarda umumiy o'lim ko'rsatkichi 20 foizga, onalar va chaqaloqlar o'limi 3,1 barobar kamaydi. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1995

yilga nisbatan 4,6 yilga oshdi va bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasi faoliyatini tashkil etishda so'nggi yillarda to'planib qolgan tizimli kamchilik va muammolar fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni samarali hal etishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan:

birinchidan, sog'liqni saqlash tizimini boshqarish va rejalashtirish bo'yicha konsepsiya hamda strategik maqsadlarning mavjud emasligi oqibatida ushbu sohadagi islohotlar to'liq bo'lmagan shaklda amalga oshirilmoqda, bu esa aholining tibbiy yordam sifatiga doir istak va talablariga javob bermayapti;

ikkinchidan, sog'liqni saqlash sohasidagi smetali moliyalashtirish tizimi eskirgan, zamonaviy xalqaro amaliyotga mos kelmaydigan mexanizmlarga asoslangan bo'lib, moliya resurslarining samarasiz ishlatilishiga va sohaning surunkali tarzda moliyalashtirilmay qolishiga olib kelmoqda;

uchinchidan, kasalliklarni profilaktika qilish va barvaqt aniqlash, patronaj va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ishlar samaradorligining pastligi fuqarolarning ixtisoslashgan tibbiy yordam so'rab murojaat qilishining ko'payishiga sabab bo'lmoqda;

to'rtinchidan, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning turli darajalari va bosqichlari, shu jumladan, davolash va salomatlikni tiklash jarayonida uzviylik sust rivojlangan;

beshinchidan, amaldagi kadrlar siyosati tibbiy yordam ko'rsatishning barcha darajalarida, ayniqsa, birlamchi bo'g'inda mutaxassislar bilan ta'minlashning, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi tashkilotchilari va boshqaruv xodimlarini tayyorlashning istiqbollarini prognozashtirish imkonini bermayapti;

oltinchidan, tibbiy amaliyotning ta'lim va ilm-fan bilan integratsiyasi sustligi ixtisoslashtirilgan markazlarning innovatsion salohiyati pastligi bilan birgalikda zamonaviy tibbiyot yutuqlarini davolash-tashxis jarayoniga joriy etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

yettinchidan, sog'liqni saqlash sohasida elektron yagona standartlar mavjud emas, tibbiy xizmatning integratsiyasini va samarali boshqarilishini ta'minlaydigan zamonaviy dasturiy mahsulotlar joriy etilmagan, mavjud axborot tizimlari va texnologiyalari tarqoq tusga ega va tor yo'nalishlarga mo'ljallangan.

4.2. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar.
2. Shifoxona dorixonasining asosiy funksiyalari.
3. DPM dorixonasining tarkibi, binolari va jihozlari.

4. Dori vositalari, farmatsevtika mahsulotlarini qabul qilish va tarqatish uchun farmatsevt texnologining ish joyi.

5. Shifoxona dorixonasidagi xodimlarga qo'yiladigan talablar.

4.3. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Vazifa 1. Ushbu mavzu bo'yicha "Assesment" usulidan foydalanib vazifani ish daftaringizda aks ettiring.

Vazifa 2. "Klaster" usuli yordamida shifoxona dorixonasi mudirining vazifalarini ish daftaringizda izohlab bering.

Vazifa 3. «BBB» usuli bo'yicha "bilaman", "bildim" va "bilishni istayman" jadvalini ish daftaringizda to'ldiring.

Vazifa 4. Internetdagi materiallar yordamida 2016 va 2018 yillardagi Sanitariya qoidalari va me'yorlar bo'yicha shifoxona dorixonalariga tegishli yangi ma'lumotlar va o'zgarishlar bilan tanishib chiqing va solishtirma tahlil usulini qo'llab daftaringizda aks ettiring.

4.4. Testlar

1. Qanday dorixonalarda dorixona mudiri shifoxona bo'limlariga dori-darmon va tibbiy yordam bilan ta'minlash vazifalarini buyuradi?

- A. Aksiyadorlik dorixonasida
- B. Xususiy dorixonada
- C. Jamoa dorixonasida
- D. Shifoxona dorixonasida

2. Qanday dorixonalarda savdo zali mavjud emas?

- A. Xususiy dorixonalarda
- B. Shifoxona dorixonalarida

- C. Jamoa dorixonalarda
- D. Aksiyadorlik dorixonalarida

3. Qanday dorixona sog'liqni saqlash muassasalari ofislarida va idoralarida dori vositalarini iste'mol qilish va saqlashni nazorat qiladi?

- A. Aktsionerlik dorixonasi
- B. Xususiy dorixona
- C. Shifoxona dorixonasi
- D. Jamoa dorixona

4. Qaysi dorixona sog'liqni saqlash muassasalari va idoralarida dori vositalarini tarqatilishini nazorat qiladi?

- A. Jamoa dorixona
- B. Xususiy dorixona
- C. Aktsiyadorlik dorixonasi
- D. Shifoxona dorixonasi

5. Qaysi dorixona sog'liqni saqlash muassasalari ofislarida va dorixonalarda dori vositalari hisobini yuritadi?

- A. Xususiy dorixona
- B. Shifoxona dorixonasi
- C. Aksionerlik dorixonasi
- D. Jamoaviy dorixona

6. Shifoxona dorixonalarida hujjatlar qayerda saqlanadi?

- A. Dorixona mudiri xonasida
- B. Assistentlar stolida
- C. Aseptik blokda
- D. Xodimlar xonasida

7. Katta hajmdagi dori vositalari qaysi dorixonalarda ishlab chiqariladi?

- A. Jamoa dorixonalarda
- B. Xususiy dorixonalarda
- C. Shifoxona dorixonalarida
- D. Aksiyadorlik dorixonalarida

8. Qanday hujjatda shifoxona dorixonasining tarkibi, maydoni va boshqa ko'rsatkichlari keltirilgan?

- A. Sanitar qoidalar va me'yorlarda
- B. Farmakopeyada
- C. O'zbekiston Respublikasining Bayonnomasida
- D. Ro'yxatga olish kitobida

9. Giyohvand dori vositalari uchun talabnomalar shifoxona dorixonasida necha yil saqlanadi?

- A. 5 yil
- B. 1 oy
- C. 3 yil
- D. 1 yil

10. Nomi bo'yicha miqdoriy hisobdagi dori vositalari uchun talabnomalar shifoxona dorixonasida necha yil saqlanadi?

- A. 5 yil
- B. 4 yil
- C. 1 yil
- D. 2 yil

11. Shifoxona dorixonasining ishlab chiqarish xonalariga qanday xonalar kiradi?

- A. Talabnomani qabul qiladigan xona, retseptura, assistentlar, konsentrat va yarim fabrikatlarni tayyorlash, distilyasiya va boshqa xonalar.
- B. Tayyor dori vositalari xonalari
- C. Mudirning xonasi

D. Xodimlarning dam olish xonasi

12. Dorixonada tozalangan suvning tarkibidagi xloridlar, sulfatlar qanday muddatda tekshiriladi?

A. Har bir balondan har kuni

B. Oyda bir marta

C. Ehtiyoj tug'ilganda

D. Dori tayyorlanayotganda

13. Dorixona mudiriga narkotik dori vositalarini olish uchun beriladigan ishonchnoma necha kungacha o'z kuchini saqlaydi?

A. 15 kun

B. 10 kun

C. 3 oy

D. 1 yil

14. Qadoqllovchilar o'rtasidagi ishlarni kim taqsimlaydi?

A. Farmatsevt - assistentlar

B. Farmatsevt - texnolog

C. Farmatsevt - analitik

D. Dorixona mudiri

15. Dorixonada tozalangan suvning sifatini nazorat qilish muddati qanday?

A. Har kuni

B. Har oyda

C. Har chorakda

D. Har yili

16. Aseptik sharoitda qanday dorilar tayyorlanadi?

A. Inyeksion eritmalar, ko'z tomchilari, surtmalar, chaqaloqlar uchun tayyorlangan dorilar

- B. Zaharli modda saqlagan dorilar
- C. Narkotik modda saqlagan dorilar
- D. Psixotropolar

17. Aseptik blok qaysi xonalardan iborat?

- A. Aseptik, tambur, sterilizatsiya
- B. Sterilizatsiya, assistentlar xonasi
- C. Aseptika, assistentlar xonasi, yuvish xonasi
- D. Tambur, assistentlar xonasi

18. Aseptik blokda sanitariya holati tekshiriladi:

- A. Har smenada
- B. Har kuni
- C. Har soatda
- D. Har hafta

19. Aseptik blok qanday muddatda dezinfeksiya qilinadi?

- A. Har haftada
- B. Har kuni
- C. Har smenada
- D. Har soatda

20. O'rinlar soni qancha bo'lganda DPM dorixonasi tashkil etiladi?

- A. 100 va undan ortiq bo'lganda
- B. 1000 yoki undan ortiq bo'lganda
- C. 200 yoki 150 bo'lganda
- D. 200 yoki 300 bo'lganda

21. Shifoxona dorixonasining ishlash vaqti kim tomonidan belgilanadi?

- A. DPM bosh vrachi tomonidan
- B. Aholi tomonidan

- C. Bo'limlar boshliqlari tomonidan
- D. Dorixonaning o'zi belgilaydi.

22. DPMlarning ixtisosi va tuzilishiga ko'ra shifoxona dorixonalarining tasnifi qanday?

- A. Umumiy turdagi shifoxonalarning dorixonalari, ixtisoslashtirilgan va ruhiy asab kasalliklari shifoxonasi dorixonalari, maxsus klinik shifoxonalari dorixonalari.
- B. Xususiy dorixona, ixtisoslashtirilgan va ruhiy asab kasalliklari shifoxonasi dorixonalari
- C. Jamoa dorixonlari, maxsus klinik shifoxonalari dorixonalari.
- D. Aksiyadorlik dorixonalar

23. Shifoxona dorixonasining bevosita rahbarligi kim tomonidan amalga oshiriladi?

- A. Oliy ma'lumotli farmatsevt
- B. O'rta ma'lumotli farmatsevt assistent
- C. Farmatsevt-texnolog
- D. DPM bosh shifokori

24. Shifoxona dorixonasida zaharli dori vositalari qanday saqlanadi?

- A. Qulflanadigan seyflarda
- B. Mudirning stolida
- C. Assistentlar stolida
- D. Aseptik blokda

25. Shifoxona dorixonasidagi narkotik dori vositalari qanday saqlanadi?

- A. Faqat temir shkaflarda qulflanib saqlanadi
- B. Yogochdan yasalgan qulflanadigan shkaflarda
- C. Assistentlar stolida

D. Farmatsevt-texnolog stolida

26. DPM dorixonasi aholiga xizmat ko'rsatadigan dorixonadan qaysi jihat bilan farqlanadi?

- A. Savdo zali bo'lmasligi bilan
- B. Aseptik blokning bo'lmasligi bilan
- C. retseptura xonasi bo'lmasligi bilan
- D. ekspeditsiya xonasi bo'lmasligi bilan

27. Shifoxona dorixonalarida qanday xonalar mavjud?

- A. Ishlab chiqarish xonasi, saqlash xonalari, ma'muriy va xizmatchilar xonalari, maishiy xo'jalik xonasi
- B. Saqlash xonalari
- C. Maishiy xo'jalik xonasi
- D. Savdo zali

5-BOB. DORI VOSITALARIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA TALAB ISTIQBOLINI ANIQLASH

5.1. Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va unga ta'sir etuvchi omillar

5.2. Alohida farmakoterapevtik guruh dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash usullari

5.3. Ehtiyojni aniqlashning zamonaviy usullari

5.4. Ekstrapolyasiya usullari

5.5. Istiqbolni aniqlashda modellash usullarini qo'llanishi

5.6. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

5.7. Mustaqil bajarish uchun

5.8. Testlar

Mavzuning maqsadi: Talabalarga dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj, turli xil farmakoterapevtik guruh dori vositalarining ehtiyojini aniqlash usullari va dori vositalariga bo'lgan talab istiqbolini aniqlash haqida ma'lumotlar berish. Talabalarda dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va talab istiqbolini aniqlash usullari va boshqa ma'lumotlar haqida ko'nikmalar shakllantirish.

5.1. Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va unga ta'sir etuvchi omillar

Ehtiyoj – qondirishni talab qiluvchi biror bir narsaga bo'lgan muhtojlik zaruratidir.

Aholini dori vositalari va boshqa dorixona assortimentidagi tovarlar bilan ta'minlashni yaxshilash

uchun farmatsevtika xizmatini boshqarish, dori vositalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash ilm-fan yutuqlari asosida amalga oshirishni talab etadi. Dori vositalari asosida yordam ko'rsatishning har bir bosqichlarida ular ehtiyojining istiqbolini to'g'ri aniqlash, dori vositalarning oqilona ishlatilishini ajralmas sharti hisoblanadi. Dori vositalariga bo'lgan talabni ilmiy asoslab rejalashtirish, aholi va davolash-profilaktika muassasalarini ularga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondiribgina emas, balki dori vositalarini va tibbiyot buyumlarini sotib olish resurslaridan ham tejamkor foydalanishdir.

Dori vositalarga bo'lgan ehtiyoj – bu aholini va davolash-profilaktika muassasalalarni dori vositalari va tibbiyot buyumlarini sotib olish imkoniyatini aks ettirish va ularga talabni o'z vaqtida qondirishning haqiqiy imkoniyatidir. Dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash farmatsevtik biznesni tashkillashtirishda eng muhim hisoblanadi, chunki bir tarafdin bu ishlab chiqaruvchiga maksimal foydani olishga, ikkinchi tomondan aniq iste'molchining ehtiyojni qondirish va sog'lig'ini saqlashga imkon beradi.

5.2. Alohida farmakoterapevtik guruh dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash usullari

Dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun bir necha usullar keng miqyosda qo'llaniladi:

Me'yoriy usul – aniq kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan maxsus ta'sirga ega bo'lgan vositalar (diabetga, silga, shishga qarshi va b.) uchun. Bu usul bitta davolash kursidagi vositalarni optimal to'plamiga va kasallikning ob'yektiv statistikasiga asoslangan. Ushbu usul oddiyligi, arzonligi, qulayligi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy-matematik usullar – bu usullar keng omilli korrelyasion-regression tahlilga asoslangan. Mantiqiy-iqtisodiy usullar ekspertli baholashiga asoslangan. Bu usul muammolarni hal qiluvchi mutaxassislarning fikrlari bilan bog'liq. Dori vositalarini tahlili va ehtiyojini istiqbollashda turli guruh vositalar iste'moli shakllanishini o'ziga xos ekanligini hisobga olish zarur.

Iste'moliga ko'ra dori vositalari 3 guruhga bo'linadi:

Me'yori cheklangan dori vositalar (giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, etil spirti v.b.).Maxsus ta'sirga ega, 1-2 kasallikni davolashda ishlatiladigan vositalar.

Keng spektrda ta'sir etuvchi, ko'p kasalliklarni davolashda yoki ularni oldini olishda ishlatiladigan dori vositalar (isitma tushuruvchi, sulfanilamidlar, vitaminlar va b.).

5.3. Ehtiyojni aniqlashning zamonaviy usullari

Istiqbolni aniqlashda ekspert usullari.Sifat va miqdoriy tahlil qo'llanganda ekspertlar eng zarur tadbirlarni, ularni bir-biriga bog'liqligini baholash, sotish jarayoni ketma-

ketligini, va shu har bir tadbirlarni bajarish ehtimolini, muddatlarini ajratib olishga yordam berishadi.

Ekspertlar berilgan masalani boshqarish imkoniyatini va uni hal etishda har bir omillarning hissasini baholab so'ngra ushbu muammoni yechish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan hodisa, tadbirlarni aniqlab beradilar. Bundan tashqari ular bu tadbirlarni istiqbolini aniqlash davrida obyektiv bajarilish ehtimolligini hisobga olgan holda, bu tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan muddatlarni ular ketma-ketligini va bir-biriga bog'liqligini aniqlab beradilar. Ekspert baholashdagi natijalar statistik usullar bilan qayta ishlab chiqiladi.

5.4. Ekstrapolyasiya usullari

Izlanishli istiqbollarni oladigan asosiy usullaridan biri ekstrapolyasiya usuli hisoblanadi, bunda oldingi g'oyalar kelajakda saqlanishi haqida va ularning dinamik qator taxminlangan holda uning mantiqiy asosi hisoblanadi. Dinamik qatorlarni tahlili asosida qonuniylik, o'rnatilgan o'zgarishlar va regressionli apparat ko'proq qo'llanilgan holda belgilab qo'yilgan g'oyani ta'riflashda va uni uzaytirishda tegishli approksimirli tenglik tanlab olinadi.

5.5. Istiqbolni aniqlashda modellash usullarining qo'llanishi

Istiqbolni aniqlashda 3 ta guruh modellari qo'llaniladi: mantiqiy, axborotli va matematik.

Mantiqiy modellar asosida dialektik printsip yotadi. Har qanday obyektlarni xususiyatlari bir-biriga bog'liq va biri ikkinchisiga ta'sir etadi, boshqacha deganda:

agar qaysidir bir turdagi obyektlarda qandaydir o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa, unda o'xshash obyektlarda ham xuddi shunday jarayonlar sodir bo'ladi;

agar o'xshash ikkitasidan bitta obyektida qandaydir yangi xususiyat topilgan bo'lsa, unda balki boshqa obyektida ham u aniqlangan bo'lishi mumkin.

Axborotli modellash usullari bilan istiqbollash asosida ommaviy axborot oqimlarning (maqolalar, kitoblar, patentlar, ixtirolar va boshqalar) tahlili, strukturali va boshqa «axborotli signallar» nomli o'zgarishlar hamda turli xil yangi g'oyalarni aniqlanishi turibdi. Ma'noli tahlil (kontent-tahlil) axborotni sifatli va miqdoriy o'rganishni taxmin qiladi. Bunda tezlik, struktura, o'zaro munosabatlar, o'rtacha kattaliklar va boshqa nisbiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan taminlashni yanada yaxshilashga doir chora tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 sentyabrdagi 741-son qaroriga asosan "Ijtimoiy

ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlariga ehtiyojni aniqlash tartibi to'g'risidagi" nizom tasdiqlangan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning «Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2017 yil 17 iyuldagi PQ-3137-son qaroriga muvofiq, dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash bo'yicha yagona talablarni belgilash va aniq mexanizmlarni, muvozanatlashtirilgan importni ta'minlash va mahalliy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni prognozashtirish joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi davolash-profilaktika muassasasining doimiy faoliyat ko'rsatadigan komissiyasi — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi davolash-profilaktika muassasasida tashkil etiladigan va ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari hamda tibbiyot buyumlariga bo'lgan ehtiyojni hisoblab chiqadigan va tasdiqlaydigan, ularni xarid qilish, hisobga olish, taqsimlash hamda qo'llashni nazorat qiladigan komissiya;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining doimiy faoliyat ko'rsatadigan komissiyasi — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligida tashkil etiladigan va asosiy dori vositalari, ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari hamda tibbiyot buyumlari ro'yxatlarini qayta ko'rib

chiqib, ushbu ro'yxatlardagi dori vositalari va tibbiyot buyumlariga respublikaning yillik ehtiyojini tasdiqlaydigan, shuningdek ularni xarid qilish, hisobga olish, taqsimlash hamda ularning qo'llanishini nazorat qiladigan komissiya.

Ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash tartibi

Ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari tarkibiga kiradigan narkotik va psixotrop moddalarga bo'lgan ehtiyoj Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida» 2003 yil 29 oktyabrdagi 472-son qaroriga muvofiq bir yilda 1000 nafar aholiga narkotik va psixotrop moddalar iste'molining normalaridan (narkotik moddalarning tibbiyot maqsadlari uchun sarflanadigan ruxsat etilgan normalari) foydalangan holda aniqlanadi.

5.6. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va unga ta'sir etuvchi omillar
2. Alohida farmakoterapevtik guruh dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash usullari
3. Ehtiyojni aniqlashning zamonaviy usullari
4. Ekstrapolyasiya usullari
5. Istiqbolni aniqlashda modellash usullarining qo'llanishi

5.7. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Vazifa 1. “Klaster” usulidan foydalanib dori vositalariga boʻlgan ehtiyojni ish daftaringizda tavsiflang.

Vazifa 2. Dori vositalariga boʻlgan talab turlariga oid maʼlumotlardan foydalanib jadvalni toʻldiring

Qondirilgan talab	
Qondirilmagan talab	
Shakllanayotgan talab	

Vazifa 3. Quyidagi maʼlumotlardan foydalanib, jadvaldagi moslikni toping:

Taklif	Dorixonada mavjud boʻlgan dorilar soni
Talab	sotilgan dori vositalar va boshqa dorilarning miqdori
Isteʼmol	ilmiy va amaliy yutuqlarni inobatga olgan holda farmatsevtika bozorida aholini qondirish

Vazifa 4. Insulin uchun yillik ehtiyojni aniqlang va vazifani bajarish uchun quyidagi maʼlumotlardan foydalaning:

Dorixonaga xizmat ko'rsatadigan odamlarning soni 30 ming, diabet kasalligi bilan kasallanganlarning soni 2% ni tashkil etadi, har bir bemorga beriluvchi insulin miqdori 90 g.

1-bosqich. Qandli diabet uchun insulin qabul qiladigan bemorlarning sonini aniqlang.

2-bosqich. Yillik va oylik insulinga bo'lgan ehtiyojni aniqlang.

Vazifa 5. Promedolga bo'lgan ehtiyojni aniqlang.

Ushbu vazifani bajarish uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaning. Dorixona aholisi 48000, promedol miqdori esa 5 g.

Vazifa 6. "Esse" usuli orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yoritib bering.

Esse (frans. — urinish, sinash, ocherk) — erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse usuli orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop yoki sof belletristic (badiiy adabiyot) xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. O'zbek adabiyotida 20-asrning 70—80- yillaridan yaratila

boshlandi. Esse hajmi taklif qilingan mavzudagi 1000 soʻzdan 5000 soʻzgacha boʻlgan asardir.

Esse-bu muallifning alohida individual pozitsiyasiga ega erkin shakldagi bayoni boʻlib, qandaydir buyum yoki qandaydir sabab boʻyicha umumiy yoki oldindan bildirilgan fikr mulohazalardan iborat boʻladi.

5.8. Testlar

1. Iste'moli cheklangan dori vositalariga boʻlgan ehtiyoj qaysi formula bilan ifodalaniladi?

A. $E = M \cdot a / 1000$;

B. $E = D \cdot C$;

C. $E = D \cdot B$;

D. $E = B \cdot C$;

2. Dorixona sistemasida boʻlishi kerak boʻlgan dori vositalari miqdori bu:

A. Talab

B. Iste'mol

C. Daromad

D. Taklif

3. Ta'sir doirasi keng boʻlgan dori vositalari...

A. Og'riq qoldiruvchi, isitma tushuruvchi;

B. Sil kasalligida ishlatiladigan dori vositalari;

C. Qandli diabet kasalligida ishlatiladigan dori vositalari;

D. Giyohvand dori vositalari.

4. Maxsus ta'sirga ega boʻlgan kasalliklarni davolashda ishlatiladigan alohida guruhlar uchun ehtiyojni aniqlashda qaysi formuladan foydalaniladi?

A. $E = D \cdot K \cdot B$;

B. $E = M \cdot a / 1000$;

C. $E = K \cdot B \cdot D$;

D. $M = E / 1000$.

5. Iste'moli cheklangan dori vositalariga quyidagilardan qaysi birlari kiradi?

- A. Og'riq qoldiruvchi
- B. Isitma tushiruvchi
- C. Giyohvand dori vositalari, etil spirti
- D. Qandli diabet

6. Bozor-bu:

- A. Tovarlar va xizmatlarni sotish va xarid qilish (almashinuvi) bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi;
- B. Bozor subyektlariga miqdor, imtiyozlar haqida ma'lumotlar berish;
- C. Ijtimoiy ishlab chiqarishni samarasiz iqtisodiy birliklardan tozalash;
- D. Vositachilar rolini o'ynaydigan va bozor subyektlari o'rtasida tovar-pul muomalasining yordamchi muammolarini hal qilishda ishtirok etadigan muassasalar majmuasi.

7. Farmatsevtika bozori-bu:

- A. Sotuvchi va xaridorlarni birlashtiradigan mexanizm.
- B. Iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorining bir qismi bo'lib, ularning tahlili tizim, marketing va institutsional yondashuvlar yordamida amalga oshiriladi.
- C. Pul mablag'lari bilan almashinuv (tovar - pul - tovarlar).
- D. Tashkilot ichida undan foydalanish uchun tovar sotib olgan iste'molchi tashkilotlari yoki boshqa iste'molchilarga sotish.

8. Dori-darmon bozorining subyektlari:

- A. Obyektlarga nisbatan faol bo'lgan bozor ishtirokchilari
- B. Global, federal va mintaqaviy ta'sir omillari

C. Farmatsevtika mahsulotlarining mavjud va potentsial iste'molchilari va farmatsevtika yordamiga bo'lgan ehtiyojni qondiradigan tovarlar va xizmatlar majmui

D. Farmatsevtika sanoatining atrof-muhit muhofazasi obyektlari

9. Oxirgi foydalanuvchi-bu:

A. Preparatni belgilovchi tibbiyot xodimlari (shifoxonada, sanatoriyada davolanish) yoki ularga retsept yozuvchi xodimlar (ambulator davolash);

B. Tashkilot ichida undan foydalanish uchun tovar sotib olgan yoki boshqa iste'molchilarga sotadigan iste'molchilar yoki tashkilotlar

C. Shaxsiy yoki oilaviy foydalanish uchun dorixona tovarlari turlarini xarid qiladigan bemor yoki oila

D. Farmatsevtika bozoridagi ehtiyojlarni shakllantirishning asosiy omili.

10. Institutsional iste'molchi-bu:

A. Ta'sir etadigan obyektlarga nisbatan faol bo'lgan bozor ishtirokchilari;

B. Farmatsevtika bozoridagi ehtiyojlarni shakllantirishning asosiy omili;

C. Tashkilot yoki iste'molchi foydalanishi uchun tovarlar sotib olgan iste'molchi tashkilotlar yoki boshqa iste'molchilarga sotish;

D. Shaxsiy yoki oilaviy foydalanish uchun dorixona tovarlari turlarini xarid qiladigan bemor yoki oila

6-7 BOBLAR. FARMATSEVTIKA BOZORIDA ULGURJI SAVDO FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. DORI VOSITALARINING MUOMALASIDA LOGISTIK YONDASHUV

6.7.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish tartibi to'g'risida Nizom

6.7.2. Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risida

6.7.3. Dorixona omborining vazifalari

6.7.4. Dorixona omborining xususiyatlari

6.7.5. Dori vositalarini saqlashning o'ziga xosligi

6.7.6. Farmatsevtika sohasida logistika

6.7.7. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

6.7.8. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

6.7.9. Testlar

Mavzuning maqsadi: Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilishda davlat standartlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga, yong'in xavfsizligi qoidalari, mehnat muhofazasi qoidalari, texnika xavfsizligi qoidalariga va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi haqidagi qonun qoidalar haqida, dori vositalarining muomala sohasida logistik yondashuv, farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berish.

Talabalarda dori vositalarining muomala sohasida logistik yondashuvi, farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkillashtirish haqida ko'nikmalar shakllantirish.

6.7.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish tartibi to'g'risida Nizom

«Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida» 2016 yil 4 yanvardagi O'RQ-399-son O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish, dori vositalari va tibbiy buyumlarning ulgurji va chakana realizatsiyasini tartibga solish, aholini xavfsiz, sifatli va samarador dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

Nizom «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish tartibini belgilaydi.

Nizom talablari tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar (keyingi o'rinlarda ishlab chiqaruvchilar deb ataladi), shuningdek dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar

(keyingi o'rinlarda ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar deb ataladi) uchun majburiydir.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar hamda ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlari ishlab chiqargan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish huquqiga ega, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar bundan mustasno.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilardan, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi boshqa tashkilotlardan, shuningdek dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chet ellik ishlab chiqaruvchilardan hamda ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlardan xarid qilish huquqiga ega.

Chetdan olib kelinadigan, shuningdek, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinadigan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ulgurji sotish, ularni

yetkazib berishda ishtirok etuvchi vositachilar sonidan qat'iy nazar, ulgurji savdo uchun sotib olingan qiymatidan 15 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadigan cheklangan savdo ustamalari qo'llanilgan holda amalga oshiriladi.

Ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga, tibbiyot tashkilotlariga, shuningdek dori vositalaridan va tibbiy buyumlardan tibbiyotda qo'llash maqsadida o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi tashkilotlarga realizatsiya qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni realizatsiya qilishga ruxsat etiladi.

Dori vositalari — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

dori moddalari (substansiyalar) — farmakologik, immunologik yoki metabolik faollikka ega bo'lgan yoxud tashxis qo'yish maqsadi uchun foydalaniladigan, tibbiyot

amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar;

dori preparatlari — dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanish uchun tayyor dori vositalari;

dorivor o'simlik xomashyosi — dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun foydalaniladigan, tarkibida biologik faol moddalar bo'lgan o'simliklar yoki ularning qismlari;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum — yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

tibbiy buyumlar — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

farmatsevtika faoliyati — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari — intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum — tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum;

muvofiglik sertifikat — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofigligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

dori vositalari kesishgan kontaminatsiyasi — xom ashyo, oraliq mahsulot yoki tayyor mahsulotning boshqa xom ashyo yoki tayyor mahsulot bilan texnologik jarayon vaqtida, tashish yoki saqlashda ifloslanishi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilishni tashkil etish tartibi va shartlari

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilishda davlat standartlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga, yong'in xavfsizligi qoidalari, mehnat muhofazasi qoidalari, texnika xavfsizligi qoidalariga va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ta'minlanishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tegishli davlat standartlari talablariga muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash va realizatsiya qilishda ularning sifatini va xavfsizligini ta'minlash talabiga

javob beradigan tegishli binolarga, asbob-uskunalar va jihozlarga ega bo'lishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tashish va saqlashda ularning xavfsizligi, sifati va but saqlanishi ta'minlanishi shart.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish hamda ulgurji realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini belgilangan tartibda yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami, amal qilish muddati, shuningdek litsenziya bergan organ to'g'risidagi ma'lumotlarni tanishish uchun qulay bo'lgan va ko'rinadigan joyga joylashtirishi kerak.

Ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalari va tibbiy buyumlarning muvofiqlik sertifikatini bilan manfaatdor shaxslarning elektron yoki qog'oz shaklda tanishishlari uchun imkoniyat yaratishi shart.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ulgurji realizatsiya qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilishni ta'minlash sharoitlari

Ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar binosining kirish qismida tashkilotning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan manzili va ish tartibi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi peshlavha bo'lishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning omborxona binolari sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, yong'in xavfsizligi qoidalari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga javob berishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning omborxona binolari dori vositalarining va tibbiy buyumlarning fizik-kimyoviy, farmakologik va toksikologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, dori vositalarining va tibbiy buyumlarning to'g'ri saqlanishini ta'minlaydigan sharoitlarga ega bo'lishi kerak.

Omborxona alohida qurilgan yoki noturar joyga aylantirilgan turar joy binolarining xonalarida joylashgan bo'lishi mumkin. Bunda omborxona boshqa xonalardan izolyasiya qilingan, alohida kirish yo'lakchasi va maydoniga ega bo'lishi kerak.

Omborxona turar joy binolarining noturar joyga aylantirilgan xonalarida joylashgan hollarda, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yuklash va tushirish turar joy binosi derazalari tagida amalga oshirilmasligi kerak.

Omborxonada elektr ta'minoti, issiqlik va suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi hamda havo almashtirish uskunasi bo'lishi kerak.

Omborxonaning dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish, saqlash, buyurtmalarni joylashtirish va berish xonalari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak.

Omborxonaning asosiy saqlash xonalarida quyidagilar bo'ladi:

- dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish xonasi;
- dori vositalarini va tibbiy buyumlarni asosiy saqlash xonasi.

Saqlashning alohida sharoitlarini talab qiladigan dori vositalarini saqlash uchun xonalar maydoni saqlanayotgan dori vositalari hajmiga muvofiq bo'lishi kerak. Omborxona quyidagi asbob-uskunalar va inventarlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak:

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash uchun stellajlar, tagliklar;

termolabil dori vositalarini saqlash uchun sovutish kameralari yoki maishiy sovutgichlar;

havo parametrlarini qayd qilish asboblari (termometrlar, gigrometrlar yoki psixrometrlar);

alohida guruh dori vositalarini, hisob-kitob hujjatlarini va axborot beruvchi adabiyotlarni saqlash uchun qulflanadigan metall shkaflar yoki seyflar;

yechinib kiyinish xonasida ustki va maxsus kiyimlarni va oyoq kiyimlarini saqlash uchun shkaf;

sanitariya holatini ta'minlash uchun dezinfeksiya vositalari va xo'jalik jihozlari.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni omborxonada qabul qilish va berish

Omborxonada dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish omborxonaning qabul qilish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Yuklash-tushirish ishlarini olib borishda dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yog'in-sochinlardan, quyosh nurlarining bevosita ta'sirlaridan, yuqori yoki past haroratdan himoya qilish ta'minlanishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni qabul qilish va saqlash joylari bir-biridan ajratilgan bo'lishi kerak.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlar ularning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda muomaladan chiqarilishi va dalolatnoma tuzilib, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yo'q qilib tashlanishi kerak. Bunda ular identifikatsiya yoki belgilangan tartibda yo'q qilingunga qadar boshqa dori vositalari va tibbiy buyumlardan alohida maxsus izolyasiya qilingan joyda dalolatnoma asosida saqlanishi kerak.

Omborxonaga qaytarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ular bo'yicha belgilangan tartibda qaror qabul qilingunga qadar identifikatsiya qilinib, alohida joyda saqlanishi kerak.

Texnik jihatdan tartibga solishi sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa hujjatlar talablariga muvofiq bo'lmagan holatlarda tahlillar natijalariga ko'ra omborxonaga qaytarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar asosiy saqlash xonasiga o'tkazilishi mumkin.

Texnik jihatdan tartibga solishi sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa hujjatlar talablariga muvofiq bo'lmagan holatlarda tahlillar natijalariga ko'ra omborxonaga qaytarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar dalolatnoma asosida rasmiylashtiriladi va belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlashni tashkil qilish

Omborxonada barcha dori vositalari va tibbiy buyumlar stellajlarda va tagliklarda joylashtirilishi kerak. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni polda tagliklarsiz

joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Tagliklar polda bir qatorda yoki stellajlarning balandligi hisobga olingan holda stellajlarda bir necha qavatda joylashtiriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash xonalari va ulardagi asbob-uskunalar, jihozlar toza holatda saqlanishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalari va tibbiy buyumlarning buzilishi (to'kilishi, sochilishi, sinishi), mikroorganizmlar tomonidan shikast yetkazilishi va dori vositalari kesishgan kontaminatsiyasining oldini olish uchun tegishli choralarni ko'rishi kerak.

Omborxonada hasharotlar, kemiruvchi va boshqa turdagi hayvonlardan saqlanadigan sharoitlarni yaratish va ularga qarshi qo'llaniladigan vositalar bilan ta'minlanish talab etiladi. Bunda kuchli ta'sir etuvchi vositalar ishlatilishi taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash quyidagicha tizimlashtirilgan tarzda bo'lishi mumkin:

- farmakologik guruhlar bo'yicha;
- qo'llanish usullari bo'yicha.

Barcha dori vositalarini va tibbiy buyumlarni o'ramlarda tamg'alanishi tashqi tomonga qaratilgan holda taxlanishi va joylashtirilishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarda dori vositalarining hisobi yaroqlilik muddatlari bo'yicha elektron yoki qog'oz shaklida yuritiladi.

Dori vositalari omborxonalarda fizik-kimyoviy xususiyatiga qarab alohida, ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilangan sharoitlarda harorat, namlik va yorug'lik rejimlariga rioya qilgan holda saqlanishi kerak.

Omborxonada harorat va namlik har kuni maxsus elektron dasturda yoki sahifalari raqamlangan, tikilgan va muhrlangan (tadbirkorlik subyektlaridan muhr bilan tasdiqlash talab qilinmaydi) jurnalda qayd etilishi lozim.

Yorug'likdan himoya qilishni talab qiladigan dori vositalari qorong'i xonada yoki qora rangga bo'yalgan, eshiklari zich yopiladigan shkaflarda yoxud qopqog'i zich yopilgan yashiklarda saqlanishi kerak.

Termolobil dori vositalarini saqlashda ular tamg'alanishi yoki qo'llash bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan harorat rejimiga rioya etilishi kerak.

Dorivor o'simlik xomashyolari (avvaldan quritilgan) havo yaxshi aylanadigan, quruq xonalarda, yopiq (shisha, metall, yog'och) idishlarda saqlanishi kerak.

Bog'lovchi materiallardan iborat tibbiy buyumlarni saqlashga quyidagi talablar qo'yiladi:

bog'lovchi materiallar quruq, havo yaxshi aylanadigan, chang va kemiruvchilardan himoyalangan xonalarda

saqlanadi. Sterillanmagan materiallarni isitilmaydigan xonalarda saqlashga ruxsat etiladi. Steril materiallarni harorat o'zgarishida o'ram sifatiga ta'sir qilmasligi uchun ularni harorat darajasi tez o'zgarmaydigan xonada saqlashga yo'l qo'yiladi;

sterillangan bog'lov materiallarini omborxonada saqlashda ularni ishlab chiqarish muddatlari bo'yicha taxlash zarur.

Rezina buyumlardan iborat tibbiy buyumlarni saqlashga bo'lgan talablar:

xona quyosh nuridan himoya qilingan bo'lishi kerak. Yorug'lik faqat sun'iy, elektr orqali bo'lishi lozim;

buyumlar solingan qutilar va shkaflar markaziy isitish batareyasidan 1 metrdan kam bo'lmagan, shuningdek pechlardan 5 metrdan kam bo'lmagan uzoqlikda joylashtirilishi kerak.

Nizom qoidalarini buzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchilar hamda tashkilotlarning mazkur Nizom talablariga rioya etishlari yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

6.7.2. Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risida

Ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi amaldagi ruxsatnoma guvohnomalari xo'jalik yurituvchi sub'yektning taqdim etilgan arizasi hamda ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsatnoma guvohnomasi asosida qo'shimcha yig'implarsiz ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga qayta rasmiylashtirilishi mumkin. Qayta rasmiylashtirish muddati ikki ish kunidan ko'p bo'lmasligi kerak;

Tovar ning nomi	Nomenkla- tura nomeri	O'lchov birligi		Miqdo-ri /soni/	Chakan a narxi	Jami chakan a narxi	Ulgurji narxi	Jami ulgurji narxi	Eslat- ma
		kodi	No- mi						
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.	10.
Jami varaq									
bo'yicha									
Hammasi									
Hamma berilgan tovarlar puli xarf bilan _____ Hamma tovar turi _____ xarf bilan _____ Hamma o'rni /dona/ _____ _____ xarf bilan _____ Ilova /pasport, shahodatnoma va boshqalar/ _____ _____ dona _____ _____ xarf bilan _____ Shartnoma /talab/ № _____ " " _____ vildan _____ Tovarni berdim. _____ Yukni etkazib berishga qabul qildim. _____ Qabul qildim. _____									

Satr nomeri	Tovarning xos raqami	Haqiqiy jo'natilgan tovarning miqdori	Narxi		Tovarning nomi hos raqami	O'lchov birligi hos raqami	Talab qilinadi	Ruxsat beriladi
			Chakana	Ulguri				
01								
02								
03								
04								
05								
06								
07								
08								
09								
10								
11								

6.7.9. Testlar

1. Mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayon nima deb ataladi?
 - A. Mahsulotlarning harakatlanishi
 - B. Mahsulot zanjiri
 - C. Moliyaviy harakatlar
 - D. Farmatsevtik logistika

2. Ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga mahsulot kelib tushishini tashkil etish uchun qanday hujjat to'ldiriladi?
 - A. Shartnoma
 - B. Talablar
 - C. Transport hujjati
 - D. Ishonchnoma

3. Dorixona omborxonasidan tovarlarni chiqarib ketishda qaysi hujjat taqdim etiladi?
 - A. Transport hujjati
 - B. Talablar
 - C. Shartnoma
 - D. Ishonchnoma

4. Logistika tizimini qanday tarkibiy qismlar tashkil etadi?
 - A. Ishlab chiqarish
 - B. Ishlov berish
 - C. Qayta ishlash tashkilotlari
 - D. Barcha javoblar to'g'ri

5. Havo parametrlarini ro'yxatga olish uchun dorixona omborlari qanday jihozlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak?
 - A. Termometrlar
 - B. Gigrometrlar
 - C. Psixrometrlar
 - D. Barcha javoblar to'g'ri

6. Dorixona omborida havo parametrlarini qayd etish vositalari qayerda joylashadi?
- A. Saqlash xonasining ichki devorida
 - B. Yerdan 1.57 m balandlikda isitish moslamalaridan uzoqroqda,
 - C. Eshikdan kamida 3 m masofada joylashgan
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
7. Yonuvchan va portlovchi dori vositalari qanday saqlanadi?
- A. Ularning fizik-kimyoviy, yong'inga qarshi xususiyatlariga va mahsulotning xarakteriga muvofiq bir xillik tamoyilida saqlanadi.
 - B. Yo'riqnomadagi ko'rsatmalarga muvofiq
 - C. Fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarga muvofiq
 - D. Farmakopeyaning talablariga muvofiq
8. Yonuvchan va portlovchi moddalarni saqlash uchun omborlar qanday jihozlar bilan jihozlanadi?
- A. Kerakli yuk uchun mo'ljallangan, yong'inga chidamli va barqaror tayanchlar va palletlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.
 - B. Farmakopeyaning talablariga muvofiq jihozlangan bo'lishi kerak
 - C. GOST talablariga muvofiq jihozlangan bo'lishi kerak
 - D. Sement tagliklari bilan jihozlangan bo'lishi kerak
9. Yonuvchan va portlovchi dorilarni saqlash uchun farmatsevtika omborining stellajlari kengligi qancha?
- A. Kengligi 1 metrdan oshmasligi kerak
 - B. Kengligi 0,5 m dan oshmasligi kerak
 - C. Kengligi 1,5 metrdan oshmasligi kerak
 - D. Kengligi 6 santimetrdan oshmasligi kerak

10. Qaysi holatlarda Hakamlik sudiga murojaat qilinadi?

A. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa

B. Xo'jalik obyektlarining faoliyatida tushunmovchililar yuzaga kelsa

C. Soliqlarni to'lamaganda

D. Barcha javoblar to'g'ri.

8-BOB. FARMATSEVTIKA BOZORIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ELEKTRON TIJORAT

- 8.1.Axborot atamasi to'g'risida tushuncha
- 8.2.Axborot texnologiyasi to'g'risida tushuncha
- 8.3. Elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlari
- 8.4. Elektron tijorat ishtirokchilarining huquqiy holati
- 8.5.Elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risidagi axborot
- 8.6. Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari
- 8.7. Elektron tijoratning asosiy tamoyillari
- 8.8.Elektron tijorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari
- 8.9. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar
- 8.10.Mustaqil bajarish uchun vazifalar
- 8.11.Testlar

Mavzuning maqsadi: Talabalarga farmatsevtika bozorida axborot texnologiyalari va elektron tijorat haqida ma'lumotlar berish.

Farmatsevtika bozorida axborot texnologiyalari va elektron tijorat haqida talabalarga ko'nikmalar hosil qilish.

8.1.Axborot atamasi to'g'risida tushuncha

«Axborot» atamasi lotincha “information” so'zidan kelib chiqib, tushuntirish, bildirish, ish mazmunini bayon etish tushunchalarini beradi. Materialistik falsafa nuqtayi nazaridan qaralsa, axborot moddiy olamning axborot

(ma'lumot) lar asosidagi aksidir. Axborot (ma'lumot) - bu axborotni tasavvur etishning so'z, matn, tasvir, raqamli ma'lumotlar, grafiklar, jadvallar va hokozalar orqali ifodalanish shakli. Keng ma'noda axborot insonlar, insonlar bilan texnik qurilmalar, jonli va jonsiz tabiat orasidagi signal almashinuvini o'z ichiga oladigan umum ilmiy tushunchadir. Shunday ekan, endi axborotga umumiy ta'rif berishimiz mumkin. Axborot - atrof-muhit obyektlari va ro'y berayotgan hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning parametrlari, xossalari va holatlari xususidagi axborotdir. Axborotning xossa va holatlari uning aniqlik darajasini, bilimlarining to'laligini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Kibernetika fanining asoschisi Norbert Viner o'zining asarida «axborot - bu materiya emas, energiya emas, bu - axborot» deb yozadi. Aytib o'tish joizki, axborot doimo moddiy-energetika shaklida signal ko'rinishida namoyon bo'ladi. Texnika vositalari yordamida qabul qilish, saqlash, uzatish, qidirish va ishlov berish mumkin bo'lgan shakliga keltirilgan har qanday axborotni «ma'lumot» deb ataymiz. «Axborot» va «ma'lumot» «Informatika» fanining asosiy tushunchalari hisoblanadi. «Bu tushunchalar orasida farq bormi?» degan savol tug'ilishi tabiiy. «Informatika» fani axborotga o'zaro bog'langan, atrof - muhit obyektlari yoki holatlari xususida xabarlar, ma'lumotlar va tushunchalar sifatida qaraydi. Agar, ma'lumot obyektlar bo'yicha noaniqlikni to'ldirsa, unda

u axborotga aylanadi. Demak, foydalanilgan ma'lumotlarni axborot deb tasdiqlash mumkin.

8.2. Axborot texnologiyasi to'g'risida tushuncha

Axborot texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: Obyekt, jarayon yoki hodisa holati xususidagi yangi sifatli axborotni (Axborot mahsulotni) olish maqsadida ma'lumotlarni (birlamchi axborotni) to'plash, ishlash va uzatish vositalari majmuasidan foydalanish jarayonini axborot texnologiya deyiladi.

Axborot texnologiya jamiyat iformatsion resurslaridan foydalanish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va shu vaqtga qadar o'zining rivojlanishida bir qancha bosqichlarni o'tdi. Hozirgi kunda, shaxsiy kompyuterlar axborotni qayta ishlash texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. Shaxsiy kompyuterni axborot muhitga kiritish va telekommunikatsion aloqa vositalaridan foydalanish axborot texnologiyaning rivojlanishida yangi bosqichni aniqladi, natijada «Axborot texnologiya» tushunchasining oldiga «yangi», «kompyuterli» yoki «zamonaviy» atamalarining biri qo'shildi.

Shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsion vositalarni foydalanuvchining interfeysi bilan ishlatuvchi Axborot texnologiyaga yangi Axborot texnologiya deyiladi. Yangi Axborot texnologiyaning asosiy uch prinsipi: 1. Kompyuter bilan interaktiv (dialog) ish tartibi; 2. Boshqa

dasturiy mahsulotlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi; 3. Masalani qo'yish va ma'lumotlarni o'zgartirish jarayonining moslanuvchanligi. Aytib o'tish joizki, yaqinda paydo bo'lgan yangi axborot texnologiya atamasi, asta - sekin «yangi» so'zini yo'qotmoqda, axborot texnologiya atamasining ma'nosi yangi Axborot texnologiya ma'nosini bermoqda. Shuning uchun kelgusida axborot texnologiya va yangi axborot texnologiya atamalari bir xil ma'no berishini aytib o'tmoqchimiz. Axborot texnologiya axborot tizim bilan uzviy bog'langan bo'lsa-da, ularning vazifalari turlicha. Axborot texnologiya kompyuterda saqlanuvchi ma'lumotlar ustida amallar, turli murakkablik darajasidagi bosqichlar bajarilishining aniq belgilangan qoidalaridan tashkil topgan jarayondir. Axborot texnologiyaning asosiy maqsadi birlamchi axborotdan maqsadga yo'naltirilgan amallar bo'yicha ishlov berish natijasida foydalanuvchi uchun kerakli axborotni olish.

Axborot tizim - bu muhit, uning asosiy elementlari sifatida kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar blanki, insonlar, aloqa vositalari, turli dasturiy va texnik vositalar va hokozolar ishtirok etadi. Axborot tizimning asosiy maqsadi - axborotni to'plash va uzatishni tashkil etish.

8.3. Elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlari

Elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir.

Elektron tijorat ishtirokchilari

Elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek tegishli tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xaridorlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar elektron tijorat ishtirokchilaridir.

Elektron tijoratda axborot vositachilari ham ishtirok etishlari mumkin. Elektron hujjat aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar axborot vositachilaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 14 may kuni «Elektron tijoratni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5349-sonli farmonida davlat va iqtisodiyotning real sektorida innovatsiyalarni joriy qilish,

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini isloh qilish, elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi vazifalar belgilab olingan.

«Elektron tijoratni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror mamlakat iqtisodiyotining sohalarini rivojlantirish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari mahsulotlarini eksport qilish geografiyasini kengaytirish va hajmini oshirish, Internet tarmog'i orqali jahon bozoriga milliy mahsulotlarni sotish, to'lov tizimlarini takomillashtirishdagi o'rnini hisobga olib, elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi.

Aytish joizki, qaror loyihasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi muhokamasiga qo'yilgan hamda kengashning tajribali a'zolari bo'lgan ekspertlarning fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilgan edi.

Qarorda quyidagi o'ziga xos jihatlar nazarda tutilgan:

O'zbekiston Respublikasida 2018-2021 yillarda elektron tijoratni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

qonun hujjatlariga muvofiq elektron tijorat ishtirokchilari tomonidan xizmatlar ko'rsatish jarayonida axborot tizimlari tomonidan shakllantiriladigan, bitimlardagi tomonlarni identifikatsiyalash imkonini beruvchi elektron cheklar, kvitansiyalar, xabarlar va boshqa usullar tovarlar

(xizmatlar) uchun to'lovlarni tasdiqlovchi kvitansiyalar, talonlar, chiptalar va boshqa hujjatlarga tenglashtirildi;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron tijorat bitimlarini amalga oshirishda to'lovlar virtual terminallar (E-POS) orqali xaridorga naqd pulni qabul qilganligi to'g'risida elektron chek yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatni majburiy yuborgan hamda inkassatsiya qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda pul mablag'larini xizmat ko'rsatuvchi bankga topshirish sharti bilan naqd pul shaklida qabul qilinishi mumkin;

elektron tijorat subyektlari savdo faoliyatini amalga oshirishda to'lov terminallaridan foydalangan holda tadbirkorlik subyektlarining korporativ bank kartalari, shuningdek, elektron to'lov tizimlari orqali to'lovlarni qabul qilish huquqiga ega bo'ldilar;

elektron tijorat orqali realizatsiya qilingan uch ming AQSh dollarigacha bo'lgan tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilish tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga kiritilmasdan va yuk bojxona deklaratsiyasi to'ldirilmasdan pochta xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi;

virtual terminallar (E-POS) shu turdagi nazorat-kassa mashinalari va to'lov terminallariga tenglashtiriladi.

Shuningdek, qaror asosida 2018 yilning 1 iyulidan tadbirkorlar – elektron tijorat ishtirokchilarga qator imtiyozlar beriladi, xususan:

elektron tijorat orqali realizatsiya qilingan tovarlarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga uchinchi shaxslar (tovarlarni sotuvchilar) uchun to'lovlarni keyinchalik ularni belgilangan tartibda inkassatsiya qilish sharti bilan qabul qilish huquqi beriladi;

elektron tijorat orqali sotiladigan tovarlar (xizmatlar) uchun ularning umumiy qiymatidan majburiy 15 foizli oldindan to'lov to'lash talabi bekor qilinadi;

elektron tijorat orqali realizatsiya qilingan tovarlarni sotuvchiga va yetkazib beruvchiga shaxsiy mulk, ijara va boshqa foydalanish huquqiga asosan tegishli bo'lgan avtomobil transportida O'zbekiston hududi bo'ylab yetkazib berishda shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashishlarni amalga oshirish uchun litsenziya olish talab qilinmaydi, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno;

elektron tijorat orqali dori vositalari va tibbiyot buyumlarini realizatsiya qilish, faqat saqlash va yetkazib berishda ularning xavfsizligini ta'minlash tartibi va talablariga qat'iy rioya qilgan hamda qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Qarorda belgilangan muhim yo'nalishlardan biri 2018 yilning 1 iyulidan boshlab elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reyestrining tuzilishi bo'ldi.

Milliy reyestrni yuritish elektron shaklda onlayn rejimda amalga oshiriladi;

Milliy reyestrda ixtiyoriy va bepul asosda tovar (xizmat)larni elektron tijorat orqali sotishdan olgan daromadlari umumiy sotilgan tovarlar (xizmatlar) hajmining kamida 80 foizini tashkil etuvchi, shu jumladan, elektron tijoratda elektron savdo maydonchalari, tovarlarni yetkazib berish, elektron hujjatlar va xabarlarni saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar kiritiladi.

Milliy reyestrda kiritilgan yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar 2 foiz stavka bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lovchilar hisoblanadi.

Qarorning imzolanishi elektron tijoratni rivojlantirish, xalqaro elektron savdo platformalariga qo'shilish, milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqish va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlar orasida elektron tijoratni ommalashtirishga xizmat qiladi.

8.4. Elektron tijorat ishtirokchilarining huquqiy holati

Elektron tijorat ishtirokchilari qonunda, shuningdek tuzgan shartnomalarida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Elektron tijoratda ishtirok etish, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, uning ishtirokchilariga nisbatan axborot tizimlaridan foydalanmasdan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan qo'shimcha talablar yoki cheklashlar belgilanishi uchun asos bo'la olmaydi.

8.5. Elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risidagi axborot

Elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridoriga:

yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomini yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismini;

pochta va elektron manzilini hamda o'zining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlarni;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda litsenziyasi borligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotni taqdim etishi yoxud uning bunday axborotdan foydalanish erkinligini ta'minlashi shart.

Qonun hujjatlarida elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risidagi axborotga nisbatan boshqa talablar ham belgilanishi mumkin.

Axborot vositachilarining xizmatlari

Axborot vositachilarining xizmatlari shartnoma asosida ko'rsatiladi.

Axborot vositachilari, agar elektron tijorat ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnomalarning shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, elektron hujjatlarning mazmunini yoki ulardan foydalanish tartibini o'zgartirishga haqli emas.

8.6. Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari

Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Elektron tijoratdagi shartnoma unga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish yo'li bilan kiritiladigan alohida shartlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu holda elektron hujjatni joylashtirgan elektron tijorat ishtirokchisi qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan muddat mobaynida undan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, bu muddat o'tgandan keyin esa ushbu elektron hujjatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda saqlanishini ta'minlashi shart.

Elektron tijoratda shartnoma tuzish

Elektron tijoratda shartnoma quyidagilar vositasida tuzilishi mumkin:

elektron hujjatlarni ayirboshlash; elektron hujjat ko'rinishida bo'lmagan, qabul qilib olingan oferta (shartnoma

tuzish taklifi) qabul qilinganligi to'g'risidagi elektron hujjatni jo'natish;

elektron hujjat ko'rinishida bo'lgan, qabul qilib olingan ofertadagi shartnoma shartlarini bajarish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish.

Elektron tijoratda shartnoma akseptni (taklif qabul qilinishini) o'z ichiga olgan elektron hujjat elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan qabul qilib olingan paytda yoxud ofertani o'z ichiga olgan elektron hujjatda aksept uchun nazarda tutilgan harakatlar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridori tomonidan amalga oshirilgan paytda tuzilgan deb e'tirof etiladi.

Ofertani o'z ichiga olgan elektron hujjat olinganligini oferta shartlariga rozilikni ko'rsatmasdan tasdiqlash, xuddi shuningdek mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) xaridorining harakatsizligi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksept hisoblanmaydi.

Agar qonun hujjatlarida shartnoma bo'yicha tarafning boshqa tarafga shartnomani tuzish yoki ijro etish bilan bog'liq hujjatni taqdim etish majburiyati nazarda tutilgan bo'lsa, ko'rsatilgan majburiyatni bajarish shartnomani tuzish usulidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

Elektron tijoratda shartnoma, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, faqat elektron

hujjatlardan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Elektron tijoratda ofertaga taklif etish

Elektron tijoratda ofertaga taklif etish, shu jumladan taklif qilinayotgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi reklama yoki boshqa ma'lumotlar maxsus bilimga ega bo'lmagan qabul qilib oluvchiga qabul qilib olingan axborotning elektron tijoratga taalluqliligini aniq belgilash va oferta jo'natuvchining huquqiy holati, uning tovarlari (ishlari, xizmatlari), bu mahsulotning (ishlarning, xizmatlarning) narxlari va ularni olish shartlari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradigan shaklda taqdim etilishi kerak.

Elektron tijoratda ofertaga qo'yiladigan talablar

Elektron tijoratda shartnoma tuzish maqsadida yo'llanadigan oferta, shu jumladan nomuayyan shaxslar doirasiga yo'llanadigan oferta:

elektron hujjatlardan foydalangan holda shartnoma tuzish tartibini;

shartnoma shartlarini kelishib olish chog'ida o'zgartishlar kiritish imkoniyati va tartibini;

akseptni elektron hujjat vositasida yuborish va chaqirib olish tartibini;

hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish yo'li

bilan shartnomaga kiritiladigan shartlarga taalluqli qaydlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Elektron hujjatlardan bitim tuzilganligining dalili sifatida foydalanish

Elektron hujjatlardan bitim tuzilganligining dalili sifatida foydalanish mumkin.

Nizolarni hal etish

Elektron tijorat sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

8.7. Elektron tijoratning asosiy tamoyillari

Elektron tijoratda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish erkinligi;

elektron tijoratda bitimlar tuzishning ixtiyoriyligi;

elektron tijoratda ishtirok etish sharoitlarining tengligi;

elektron tijorat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

hujjatlarni, shu jumladan elektron hujjatlarni (xabarlarni) moslashtirish;

axborot xavfsizligini ta'minlash;

tovarlarning (ishlar va xizmatlar), tegishli sifatini ta'minlash;

elektron tijorat sohasidagi ochiqlik, shaffoflik va aniqlik.

Elektron tijorat ishtirokchisi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq elektron tijorat sohasidagi faoliyatning istalgan turlari bilan shug'ullanishi mumkin.

Elektron tijorat ishtirokchisi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda, shu jumladan axborot tizimlari, kommunikatsiya texnologiyalari, elektron to'lovlar tizimlari, sotiladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlarini tanlashda, uning narxini va sotish yo'nalishlarini belgilashda, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov shakllarini tanlashida davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Elektron tijoratda bitimlar ixtiyoriy asosda tuziladi.

Elektron bitim shartlari tomonlarning xohishiga ko'ra belgilanadi, tegishli shartning mazmuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Elektron tijorat ishtirokchilari va davlat organlari elektron tijoratning barcha ishtirokchilari uchun xizmatlardan teng foydalanish sharoitlarini yaratishga majbur.

Elektron tijoratda foydalaniladigan hujjatlar o'zaro moslashtirilishi kerak.

Hujjatlarni bir moslashtirish elektron tijorat sohasidagi vakolatlangan organ tomonidan davlat organlari bilan birgalikda, elektron hujjatlar (xabarlar) bilan o'zaro almashish, ularni qayta ishlash va saqlash shakllari, standartlari, texnik yo'riqnomalari va tavsiyalari, tartibi yoki reglamentini belgilash usuli yordamida amalga oshiriladi.

Elektron tijorat ishtirokchilari o'zaro kelishuv asosida, agar bu vakolatlangan organ tomonidan belgilangan hujjatlarni moslashtirish metodlariga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilangan normalarga zid bo'lmasa, o'zlariga tegishli hujjatlar shakllaridan foydalanishlari mumkin,

Elektron tijorat sohasidagi davlat siyosati elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik va boshqa shart-sharoitlarini yaratishga yo'naltirilgan.

8.8. Elektron tijorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

biznesni innovatsion rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratish, elektron tijoratni rivojlantirish uchun zarur texnik va logistik infratuzilmani shakllantirish;

elektron tijorat sohasini rivojlantirish maqsadida investitsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlarni yaratish;

elektron tijorat ishtirokchilari o'zaro hamkorligining yangi va samarali shakllarini rag'batlantirish, zamonaviy biznes-modellarni joriy etish;

elektron tijorat operatsiyalarini himoya qilish, ishonchliligini va xavfsizligini ta'minlashda elektron tijorat ishtirokchilariga yordam ko'rsatish choralari ko'rish;

tadbirkorlik faoliyati subyektlarini ularning elektron tijorat sohasidagi faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy, iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy-texnik va boshqa axborot bilan ta'minlash;

iste'molchilar huquqlarini va elektron tijorat subyektlari manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlash;

elektron tijorat sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy-texnik tadqiqotlarni rag'batlantirish;

elektron tijorat sohasida xalqaro hamkorlik qilish, elektron tijoratdan foydalangan holda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi elektron tijorat sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi.

Vakolatli organ:

elektron tijorat sohasida davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

elektron tijorat sohasida davlat dasturlarini shakllantiradi va amalga oshiradi;

elektron tijorat sohasidagi standartlar, normalar va qoidalarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

elektron tijoratni kompleks rivojlantirishni ta'minlash doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

manfaatdor davlat organlari bilan birgalikda elektron tijorat sohasidagi hujjatlarni bir moslashtirish choralarini ko'radi;

elektron tijoratni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

elektron tijorat ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'radi;

elektron tijorat sohasini innovatsion rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda, xodimlarning malakasini oshirish tizimini shakllantirishda ishtirok etadi;

elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun servislarni yaratish maqsadida biznes-operatorlar uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

elektron tijorat sohasida zamonaviy innovatsion texnologiyalar, axborot tizimlari va axborot resurslarini joriy etish, rivojlantirish va integratsiyalashuviga ko'maklashadi;

elektron tijorat subyektlariga xizmat ko'rsatish maqsadida logistika infratuzilmasini rivojlantirish choralarini ko'radi;

manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda elektron tijorat sohasida elektron to'lovlarning samarali usullari va tizimlarini joriy qilish va ommalashtirish choralarini ko'radi;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish choralarini ko'radi;

elektron tijoratni, shu jumladan transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni o'rnatadi;

xalqaro elektron tijorat almashinuvini, turli mamlakatlar yoki mintaqalar bilan hamkorlik qilish, transchegaraviy elektron tijoratning xalqaro qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va elektron imzolarni xalqaro e'tirof etishga yordam beradi;

elektron tijorat doirasida amalga oshirilgan tranzaksiyalar va bitimlar to'g'risidagi o'rnatilgan tartibda olingan umumlashtirilgan axborotni e'lon qiladi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda elektron tijorat sohasida tadqiqot va monitoringni tashkil etadi, elektron tijorat hajmlarini hisobga olishni tashkil etish chora-tadbirlarini ko'radi;

elektron tijoratda sotishda muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 185-son qarori bilan tasdiqlangan, "Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi nizom 4¹ bandiga muvofiq:

Elektron tijorat orqali faqat retseptsiz beriladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni realizatsiya qilish, saqlash va yetkazib berishda ularning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, hujjatli va elektron rasmiylashtirish tartibi va talablariga qat'iy rioya qilgan hamda qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Bunda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni elektron tijorat orqali chakana realizatsiya qilish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi O'RQ-385-son "Elektron tijorat to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) Qonuni 3-moddasiga ko'ra:

Axborot tizimlaridan foydalangan holda tuziladigan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi elektron tijoratdir.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi O'RQ-385-son "Elektron tijorat to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) Qonuni 10-moddasiga ko'ra:

Elektron tijoratda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotuvchi yoki ularning xaridori bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs elektron tijorat ishtirokchisidir.

Elektron tijoratda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi O'RQ-385-son "Elektron tijorat to'g'risida" gi (yangi tahrirdagi) Qonuni 11-moddasiga ko'ra:

Elektron tijorat ishtirokchisi — tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotuvchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirgan taqdirda esa tegishli litsenziyani olgan paytdan e'tiboran elektron tijoratni amalga oshirish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

8.9. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Axborot atamasi to'g'risida tushuncha
2. Axborot texnologiyasi to'g'risida tushuncha
3. Elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlari
4. Elektron tijorat ishtirokchilarining huquqiy holati
5. Elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risidagi axborot


6. Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari
7. Elektron tijoratning asosiy tamoyillari
8. Elektron tijorat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

8.10. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Vazifa 1. "ASSESSMENT" usuli yordamida elektron tijorat tushunchasiga izoh bering va ish daftaringizda jadvalni to'ldiring.

Vazifa 2. Elektron tijoratning ijobiy va salbiy tomonlarini belgilab, Klaster tuzing va ish daftaringizda aks ettiring.

Vazifa 3. Mavzudagi asosiy atamalar bilan "Baliq skeleti" tuzing va ularning ta'rifini keltiring.



Vazifa 4. T-sxemasi uslubi yordamida, ushbu mavzu bo'yicha tegishli xulosalar chiqaring va ish daftaringizda izohlang.

8.11. Testlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 2004 yil 29 aprel
- B. 2005 yil 2 may

- C. 2007 yil 23 aprel
- D. 2008 yil 21 avgust

2. Elektron tijorat deganda qanday faoliyatni tushunasiz?

- A. Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati
- B. Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish faoliyati
- C. Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, ishlarni bajarish faoliyati
- D. Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati

3. Qaysi shaxslar elektron hujjat aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi axborot vositachilari hisoblanishadi?

- A. Yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar
- B. Yosh avlodlar
- C. Keksa yoshdagilar
- D. O'rta yoshdagilar

4. Elektron tijorat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining maqsadi nimalardan iborat?

- A. Elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish
- B. Axborot texnologiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish
- C. Pedagogik texnologiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish
- D. Dori turlari texnologiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish

5. Axborot vositachilarining xizmatlarini qanday hujjat asosida ko'rsatiladi?

- A. Shartnoma
- B. Dalolatnoma
- C. Ma'lumotnoma
- D. Ishonchnoma

6. Oferta bu:

- A. Shartnoma tuzish taklifi
- B. Rozilik alomati
- C. Dalolatnoma
- D. Ma'lumotnoma

7. Elektron hujjatlardan qanday hujjat tuzilganligining dalili sifatida foydalaniladi?

- A. Bitim
- B. Akt
- C. Reestr
- D. Hisobot

8. Elektron tijorat sohasida nizolar qanday hal qilinadi?

- A. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda
- B. Qarorda ko'rsatilgan tartibda
- C. Buyruqda ko'rsatilgan tartibda
- D. Dalolatnomada ko'rsatilgan tartibda

9. Elektron tijoratning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- A. Elektron tijoratda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish erkinligi, bitimlar tuzishning ixtiyoriyligi, ishtirok etish sharoitlarining tengligi
- B. Subyektlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish,

hujjatlarni, shu jumladan elektron hujjatlarni (xabarlarni) moslashtirish

C. Axborot xavfsizligini ta'minlash, tovarlarning (ishlar va xizmatlar), tegishli sifatini ta'minlash, elektron tijorat sohasidagi ochiqlik, shaffoflik va aniqlik

D. Hamma javoblar to'g'ri

10. Elektron tijorat sohasidagi vakolatli organ bu:

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi

B. Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi

C. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

D. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

QISQARTMALAR RO'YHATI

DPM-davolash-profilaktika muasassasi

DVESDM - dori vositalari ekspertizasi va standartizatsiyasi
davlat markazi

DUK- davlat unitar korxonasi

GMP- good manufacture practice

GLP -good laboratories practice

GCP-good clinic practice

GDP-good distribution practice

DV - dori vositasi

YaTM - yaxshi taqsimlash amaliyoti

GLOSSARY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Dorixona	Sog'liqni saqlash tizimining ajralmas tarkibiy qismidagi tibbiyot muassasasi bo'lib, u aholini, DPM larni va boshqa tashkilotlarni uzluksiz ravishda dori vositalari va boshqa tibbiyot buyumlari bilan ta'minlaydigan muassasa	Аптека- это медицинское учреждение, которое обеспечивает население лекарственными средствами и изделиями медицинского назначения	Pharmacy. Pharmacy is the science and technique of preparing and dispensing drugs. It is a health profession that links health sciences and aims to ensure the safe and effective use of pharmaceutical drugs.
Zorijah	Qandirishni talab qiluvchi kishi	Потребность это отражение реальной возможности населения на приобретение лекарственных средств	Need. A motivating force that compels action for its satisfaction.
Logistika	Logistika	Логистика с греч. (искусство	Logistics. Logistics is

	olingan bo'lib, hisoblash, fikrlash san'ati ma'nosini bildirib, istiqbolini aniqlash, xarid qilishni amalga oshirish, ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirish, buyurtmalarni qayta ishlash, zaxiralarni boshqarish, omborxona faoliyati va transport orqali tashishlarni rejalashtirishni o'z ichiga oladigan kompleks xo'jalik faoliyati.	рассуждать) осуществлять покупки, планировать объём производства, переработка заказов, комплекс хозяйственной деятельности, включающий в себя планирование деятельности склада и перевозки с помощью транспорта	defined as a business planning framework of the management of material, service, information and capital flows. It includes the increasingly complex information, communication and control system required in today's business environment.
Ulgurji vositachilar	Dillerlar, distribyuterlar, brokerlar va agentlar	Оптовые посредники-дилеры, дистрибьютеры, брокеры и агенты	Distributor. A distributor is an intermediary entity between a the producer of a product and another entity in distribution channel or supply

			chain, such as a retailer, a value-added reseller or a system integrator.
Yaxshi saqlash amaliyoti	Dori vositalarini saqlash uchun qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti	Надлежащая практика хранения	Good storage practice (GSP)
Yaxshi klinik amaliyoti	Klinik tadqiqotlarga joriy qilinadi	Надлежащая клиническая практика	Good clinical practice
Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti	Farmasevtik korxonada sifat tizimini qurish, yaxshi ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish uchun tavsiya etiladi	Надлежащая производственная практика	Good manufacturing practice(GMP)
Yaxshi laboratoriya amaliyoti	Yaxshi laboratoriya amaliyoti prinsiplarini belgilaydi.	Надлежащая лабораторная практика	Good Laboratory Practice(GLP)
Yaxshi distribyutorlik amaliyoti	Ulgurji savdo korxonalarida ishlatiladi	Надлежащая дистрибьютерская практика	Good distribution practices

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizov I.K. O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning nazorati. Toshkent 2011 y. 376 bet.
2. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati" to'g'risidagi O'zR qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida Toshkent 2016. 4 yanvar, O'RQ-399 son.
3. Наркевич И.А. "Управление и экономика фармации" учебник. М. "GEOTAR-Media" 2017. 923 стр.
4. Toshmuhamedov E.R. Zaynutdinov X.S., Komilov A.M., Muxamedova R.A., Juravlyova E.B., Islamova M.Z., "Farmatsevtika ishini tashkil qilish" professor
5. Yunusxo'jaev A.N. tahriri ostida o'quv darslik. - T., "Fan" nashriyoti 2007. - 221 b.
6. Umarova Sh.Z., Xidoyatova Z.Sh., Ziyaeva M.N., Islamova M.Z., Saidova M.Ya. "Farmatsevtika ishini tashkil qilish" fanidan o'quv qo'llanma Toshkent 2016 y.
7. Umarova Sh.Z., "Farmatsevtika ishini tashkil qilish" darsligi Toshkent 2020 y.
8. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saidova M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv - uslubiy ko'rsatma - to'plam Toshkent - 2009, 78 bet.
9. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saipova D.T. Saidova, M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy

mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar II-to'plam
Toshkent – 2014, 63 bet.

10. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati. 3
kitob. Yunusxo'jaev A.N. tahriri ostida. - T., 2003. - B.433

11. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 12.06. dagi PQ
3052 son "Sog'liqni saqlash organlari faoliyatini yanada
takomillashtirish to'g'risidagi" gi qarori va Sog'liqni saqlash
vazirligining 2017 yil 13.06.310-son buyrug'i.

12. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirining
«Dorixona va tibbiyot muassasalarida tramadol dori
vositasini saqlash, hisobini olib borish va berish qoidalari
to'g'risida»gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish haqida.
Toshkent sh., 2017 yil 3 avgust,104-son buyrug'i.

13. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining
«Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va
prekursorlarni saqlash bo'yicha texnik talablar to'g'risidagi
nizomning 1-bandiga o'zgartirish kiritish to'g'risida»
[O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2018 yil
22 iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1048-2]
Toshkent sh., 2018 yil 11 iyun, 31-son buyrug'i.

14. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining
«Asosiy dori vositalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»
[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil
27 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3045]
Toshkent sh.2018 yil 20 iyul, 41-son buyrug'i.

15. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 22 maydagi O'RQ-385-son "Elektron tijorat to'g'risida" gi (yangi tahrirdagi) Qonuni
16. "Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risida" 242-sonli nizom 2005 yil 5 noyabr
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "O'zbekiston respublikasi farmatsevtika tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 30 dekabr, PQ-4554-son.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "2019 — 2021 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 16.06.2020, PF-5707.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Dori vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish samaradorligini oshirish va aholini ular bilan ta'minlashni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 16.06.2020, PF-5707.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Dori vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va ularning

aylanishini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 16.06.2020, PQ-3948.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 16.06.2020 PQ-3137.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori "Ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlariga ehtiyojni aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 18.06.2020, VMQ-741.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 18.06.2020, VMQ-993.

25. Shane P. Desselle, David P. Zgarrick. Pharmacy Management Essentials for All Practice Settings. – Mc Grow Hill Medical.- 2011. – P.652.

SH.Z.UMAROVA, Z.SH.XIDOYATOVA, M.T.AZIMOVA

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH

**O'QUV QO'LLANMA
II QISM**

Nashr.lits. № 8606. 02.03.2022.

«IBN-SINO» nashriyoti 100015, Toshkent shahar, Oybek ko'chasi-45.

Format 60x84 1/20. «Times New Roman» garniturası.

Raqamli bosma usulida chop etildi.

Shartli.b.t.114.3. Hisob.b.t.11.5.

Muharrir: M.Mominkulova

Texnik muharrir: S.Ashirova

Musahhih: M.Tohirjonova

Guvohnoma № 10-4273

Toshkent farmatsevtika instituti

"Tahririy-nashriyot bo'limi" bosmaxonasida chop etildi.,2023.

100015,Toshkent shahar,Oybek ko'chasi- 45.

ISBN 978-2-12-345680-3



9 789943 939912